

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI"  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**I.R. Nuritov, M.O. Amonov, K.E. Usmonov**

# **TERMODINAMIKA VA ISSIQLIK UZATISH ASOSLARI**

**FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI BAJARISH UCHUN**

**O'QUV QO'LLANMA**

**TOSHKENT  
2024**

**Ushbu o'quv qo'llanma „TIQXMMI” - Milliy tadqiqot universiteti  
rektorining 2024 yil 04 maydagi 140 a/f-sonli buyrug'i asosida nashr  
etishga ruxsat berilgan.**

**Ro'yxatga olish raqami 140 a/f-019**

Mazkur o'quv qo'llanmada "Issiqlik texnikasi", "Termodinamika va issiqlik uzatish asoslari", "Termodinamika", "Issiqlik texnikasi va issiqlikdan qishloq xo'jaligida foydalananish" fanlari bo'yicha yopiq idishdagi gazning parametrlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, bosim farqini o'lhash, issiqlik izolyatsiya materiallarining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini va issiqlik uzatish koeffitsiyentlarini aniqlash, porshenli kompressorning asosiy qismlarini va uning ishlash prinsipini o'rghanish, issiq va sovuq suvlarining ish parametrlarini o'lhash, radiatsiya orqali issiqlik uzatishni, quritilayotgan materialning massasi va haroratini o'lhash hamda quritish vaqtini tajriba yo'li bilan aniqlashga bag'ishlanadi. O'quv qo'llanma 61020200-Mehnat muhofazasi va texnik xavfsizligi, 60810100-Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish, 60112400-Professional ta'lim (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish), 60711000-Muqobil energiya manbalari (qayta tiklanuvshi energiya), 60722900-Texnika va texnologiyalarning texnik ekspertizasi va marketingi, 60710600-Elektr energetikasi, 5410500-Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) bakalavr ta'lim yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

**Tuzuvcxilar:** **I.R.Nuritov-** "Traktorlar va avtomobillar" kafedrasi dotsenti, t.f.n.  
**M.O.Amonov-** "Traktorlar va avtomobillar" kafedrasi dotsenti.  
**K.E.Usmonov-** "Traktorlar va avtomobillar" kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

**Taqrizcxilar:** **H.T.Umirov** - "Traktorlar va avtomobillar" kafedrasi dotsenti, t.f.n.  
**T.N.Holmurodov** - ToshDAU, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish kafedrasi dotsenti, p.f.n

I.R. Nuritov, M.O. Amonov, K.E. Usmonov  
"Termodinamika va issiqlik uzatish asoslari" fanidan  
laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun  
O'quv qo'llanma. -T.: "TIQXMMI" MTU, 2024. 145 bet.

**©. "TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSİYALASH MUHANDİSLARI INSTITUTI"  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI ("TIQXMMI" MTU), 2024**

## KIRISH

Respublikamizning ravnaqi ko‘p jihatdan Oliy yurtlarda yetishtirib berilayotgan mutaxassislarining bilim va saviyasiga chambarchas bog‘liq. Respublikamizdagi energetik manbalaridan to‘g‘ri foydalanish, issiqlik energetik qurilmalarining samaradorligini oshirish masalalarini fan va texnika yutuqlari asosida o‘rganish injenerlar zimmasiga yuklatiladi.

“Termodinamika va issiqlik uzatish asoslari” fani bakalavr va magistrлarni tayyorlashda umummuhandislik bo‘lim fanlaridan, maxsus fanlarni o‘rganishga o‘tishda eng muhim vazifani bajaruvchi zarur fandir. Bu fan talabalarga ixtisoslik fanlarini chuqur o‘zlashtirishga, qay yo‘l bilan ishlab chiqarish intensivligini oshirish va texnologik qurilmalardan unumli foydalanish mumkinligini o‘rgatadi.

Bunda asosiy e’tiborni ko‘rilayotgan jarayonlarning fizik mohiyatiga va obyektning asosiy tavsiflariga qaratish lozim bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi jarayonlarida turli dvigatellar, gaz trubinali va sovutish qurilmalari hisoblarida, yoqilg‘i energiya zahiralarini iqtisod qilish, atrof-muhitni himoyalash muammolari, noan’anaviy va tiklanuvchan energiya manbalaridan keng foydalanishga qo‘yilayotgan qat’iy talablardan bo‘lajak mutaxassis termodinamika va issiqlik massa almashinushi asosiy qonunlaridan foydalangan holda amaliy vazifalarni to‘g‘ri shakllantirishda zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

Bundan tashqari, issiqlik mashinalari, sovutkichlar va issiqlik texnik qurilmalari asosida yotgan issiqlik energiyasini boshqa turdagи energiyaga aylantirib berish va aksincha, issiqlikning uzatilish usullarini, issiqlikning qishloq xo‘jaligida olinishi, yoqilg‘i energetik resurslardan hamda noan’anaviy va tiklanuvchan energiya manbalaridan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining har xil maqsadlarida tejamkorlik bilan foydalana olishi, issiqlikni qishloq xo‘jaligida qo‘llanishini amaliy jihatdan qamrab oladigan qonunlar hamda prinsiplarning nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishdan iborat.

O‘quv qo‘llanmada keltirilgan jarayonlar nazariy asoslari, ularni hisoblash usullari va samarador qurilmalar bilan jihozlash prinsiplari ushbu fan asosini tashkil etadi. Ushbu uslubiy ko‘rsatma zamонавиу texnika va uning rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda malakali mutaxassislarini sifatli tayyorlashda uzlusiz mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada zamонавиу mashinalar, texnologik jarayonlar va texnik qurilmalarning aksariyatida issiqlikni hosil qilish, undan foydalanish va issiqlik uzatish jarayonlari keng qo‘llaniladi.

# I.EKSPERIMENTAL YO'L BILAN TERMODINAMIKA JARAYONLARNI TEKSHIRISH BO'YICHA LABARATORIYA MASHG'ULOTLARI

## 1.1.Texnika xavfsizlik qoidalari

Laboratoriya ishlarini bajarishdan oldin talabalar quyidagi asosiy qoidalarni o'z ichiga olgan ko'rsatmalarga muvofiq xavfsizlik bo'yicha tushuntirish ishlaridan o'tishlari kerak:

### Umumiy maqsad

Qurilmadagi barcha ishlar faqat xavfsizlik qoidalariiga rioya qilish bo'yicha to'liq ko'rsatma olgan keyin o'qituvchi yoki mas'ul shaxs ishtirokida amalga oshirilishi kerak.

Qurilma joylashgan joy begona narsalar bilan to'lib ketmasligi kerak. Qurilmani yoqishdan oldin jihoz va asboblarni ishga yaroqlilagini aniqlash uchun ularni yaxsxilab tekshirib ko'ring. Elektr shnurlari, vilkalar, rozetkalar va kalitlarda ko'rindigan shikastlar bo'lmasligi kerak. Nosozliklar mavjud bo'lganda laboratoriya qurilmasini yoqish taqiqlanadi.

Topshiriq davomida talaba ushbu laboratoriya ishni bajarish bilan bog'liq bo'lmanan begona narsalar bilan shug'ullanmasligi kerak.

Laboratoriya qurilmasi elektr tokida ishlaganligi sababli yolg'iz ishlash taqiqlanadi. Agar kerak bo'lsa, birinchi yordam ko'rsatish uchun ikkinchi odam borligiga ishonch hosil qilganidan so'ng ishлага ruxsat etiladi.

Talabalarga laboratoriya qurilmalaridagi nosozliklarni mustaqil ravishda bartaraf etishga ruxsat berilmaydi.

### Elektr qismi uchun.

Elektr dvigatellari, isitish elementlari va asboblarni quvvatlantirish uchun 220 V yuqori kuchlanish mavjudligi sababli quyidagilar taqiqlanadi:

- a) elektr toki bilan o'zaro ulangan simlarni himoyalanmagan hollarda;
- b) o'rnatish paneli va himoya qopqoqlari ochiq holatda;
- v) laboratoriya qurilmasi elektr toki bilan ishlaganligi sababli o'qituvchining ruxsatisiz qurilmani o'chirish va yoqish taqiqlanadi;
- g) elektr toki urishining oldini olish uchun, laboratoriya qurilmasini yerlash (заземление) holati to'liq amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilmasdan turib qurilmadagi o'lchash asboblari, jihozlar va isitish quvurlari, elektr tokni ta'minlovchi simlariga tegmaslik kerak. Agarda qurilmadan biror kishini elektr toki

urishi holati ro'y bersa, darhol shifokorni chaqirishingiz kerak va u kelguncha jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatishingiz kerak bo'ladi.

d) laboratoriysi qurilmasidagi yerlash holatiga shikast yetkazilganda, darhol qurilmani o'chirilishi kerak.


laboratoriya qurilmasidagi jihozlardan tutun chiqqanda, kompressorning ruxsat etilgan haroratdan oshib ketishi yoki haddan tashqari qizib ketishi va boshqa favqulodda vaziyatlarda "**To'xtatish**" tugma yordamida qurilma darhol o'chiriladi va o'qituvchiga xabar beriladi.

Ish tugagandan so'ng, ushbu qo'llanmada keltirilgan ko'rsatmalarga qat'iy rioxaya qilgan holda o'chirilishi kerak.

Talabalar ketishdan oldin ish joylarini tartibga solishlari va o'qituvchiga ish tugaganligi haqida xabar berishlari kerak.

## 1.2. Laboratoriya stendi bo'yicha ma'lumotlar

Laboratoriya stendi alohida jarayonlarni o'rganishga mo'ljallangan to'rtta mustaqil qurilmadan iborat.



1.1-rasm. laboratoriya qurilmasining umumiyo ko'rinishi

**MeasLAB** dasturining asosiy menyusidan siz tegishli dasturni tanlashingiz kerak bo'ladi.

Tajriba vaqtini tiklash uchun siz "**Qayta tiklash**" tugmasini faollashtirishingiz kerak.

Kompyutyerda parametrlarni ishlatalish, tartibga solish va o'lchash haqida ma'lumotlarni "Dasturiy ta'minot bilan ishlash bo'yicha qo'llanma" sidan, olishingiz mumkin.

Boshqaruv bloki:

**220 V** elektr tarmoq — stendni quvvat manbaiga ulash;

**BK 1** - havo kompressorini yoqish, BK (1.9-rasm);

**BK2** - isitgichni yoqish, ƏH;

**BK3** - elektromagnit klapanni yoqish, ƏK.

*Eslatma: Vertikal paneldagagi indikator chiroq laboratoriya stendining yoqilganligini bildiradi.*

Favqulodda vaziyat tugmachasi “**To‘xtatish**” bosilgan holatda bo‘lishi kerak. Buning uchun uni soat yo‘nalishi bo‘yicha aylantiring (“**To‘xtatish**” tugmachasida ko‘rsatilgan yo‘nalishi bo‘yicha).

**Diqqat!** 60 °C dan yuqori bo‘lmagan haroratli issiq suv shisha idishlarga quying.

### 1.3. Izoterma jarayonni o‘rganish

**Ishning maqsadi:** o‘zgarmas haroratda yopiq idish ichidagi gazning parametrlarini o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.

#### Ishning vazifalari

1. Boyl-Mariott qonunini eksperimental usul bilan tekshirish.
2. Gazni izotermik siqish ishini aniqlash.
3. Izotermik jarayonning grafigini tuzish.

#### Umumiylar

**Izotermik** - bu termodinamik tizimda  $T=const$  doimiy haroratda sodir bo‘ladigan jarayon (1.2-rasm).

Izotermik jarayon gazni o‘rab turgan jismlarning harorati doimiy bo‘lishi, gazning hajmi va bosimi shu qadar sekin o‘zgarish sharti bilan amalga oshiriladiki, har qanday vaqtda gazning harorati atrofdagi haroratdan farq qilmasligi kerak.

Ko‘rib chiqilayotgan gazni ideal deb hisoblash mumkin bo‘lganda, berilgan qonunlar to‘g‘ri ekanligini aniqlashtirish muhimdir.

Ideal gaz - bu quyidagi talablarga javob beradigan haqiqiy gaz modeli:

-gaz joylashgan idishning hajmiga nisbatan barcha gaz molekulalarining hajmini e’tiborsiz qoldirish mumkin;

- molekulalar elastik to‘qnashuvlar orqali energiya almashadi;

- molekulalarni o‘zaro to‘qnashuv vaqtlarida ta‘sir kuchlarini e’tiborsiz qoldirish mumkin.

Ideal gazning holati quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi: bosim P, hajm V, harorat T, moddaning miqdori  $v = t/M$ .

Ideal gazning bu parametrlarini o‘zaro bog‘liqligini Mendeleyev Klapeyron tenglamasi yordamida aniqlanadi:

$$P * V = \frac{m}{M} R * T \quad (1.1)$$

bu yerda m - massa, M - gazning molyar massasi, R - universal gaz doimiysi.

Bu tenglamaning natijasi Boyl-Mariott qonunidir:


Doimiy harorat va massadagi gaz bosimi, hajmining qiymatlari o‘zgarmas doimiy bo‘ladi:

$$P * V = \text{const.} \quad (1.2)$$

Demak, agar 1 indeks gazning dastlabki holatiga, 2 indeks esa yakuniy holatga tegishli miqdorlarni bildirsa, yuqoridagi formulani quyidagicha yozish mumkin.

$$P_1 V_1 = P_2 V_2$$

Xususan, Boyl Mariott qonuni siyrak gazlarga nisbatan yuqori aniqlik bilan qanoatlantiriladi. Agar gaz juda siqilgan bo‘lsa, unda bu qonundan sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi.




1.2-rasm - Izotermik jarayonlar

Gaz va atrof-muhit o‘rtasidagi issiqlik almashinushi doimiy harorat farqida amalga oshirilgan sharoitda izotermik jarayon sodir bo‘lishi mumkin. Buning uchun kengaytirish (siqish) jarayoni juda sekin bo‘lishi kerak.

Kuchlarning o‘zaro ta’sirida tashqi jismlar tomonidan termodinamik tizimga uzatiladigan energiya sistemada bajarilgan ish deyiladi.

Gazning muvozanatli kvazstatik jarayonda uning hajmini o‘zgartirishning elementar ishi (1.3-rasm) ifoda bilan aniqlanadi:

$$dA = P dV \quad (1.3)$$



1.3-rasm.  $PV$ - diagrammasida izotermik jarayondagi elementar ish.

Sistemadan ish bajarganda, gaz kengayadi va bosimning pasayishi bilan birga hajm ortadi. Sistemaga ustida ish bajarganda, gaz siqiladi va bosimning oshishi bilan birga hajm kamayadi.

$dT=0$ , bo‘lgani uchun izotermik jarayonda ideal gazning ichki energiyasi o‘zgarmaydi, ya’ni:

$$dU = \frac{m}{M} C_v dT = 0 \quad (1.4)$$

Shuning uchun termodinamikaning birinchi qonuniga muvofiq, jarayon davomida gazga berilgan barcha issiqlik  $Q$  gazning tashqi kuchlarga qarshi ish bajarishiga sarflanadi, ya’ni:

$$dA = dQ \quad (1.5)$$

Gazning izotermik kengayish (siqilish) ishini quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:


$$Q_{1-2} = A_{1-2} = \int_{V_1}^{V_2} P dV \quad (1.6)$$

Mendeleyev- Klapeyron (1.1) tenglamasi yordamida, bu ifodani o‘zgartiramiz,


$$P = \frac{m}{M} \frac{RT}{V}$$

ekanligini hisobga olgan holda quyidagi tenglamani olamiz:

$$A_{1-2} = \frac{m}{M} RT \int_{V_1}^{V_2} P \frac{dV}{V} = \frac{m}{M} RT \ln \frac{V_2}{V_1} = \frac{m}{M} RT \ln \frac{P_1}{P_2} \quad (1.7)$$



Belgilanishi	Nomlanishi
ГС	geometrik idish
Π	Porshen
РΠ	Harakatlanuvchi dastagi
ТК	Uchtalik klaponi
ВЕ	Hajm datchigi
ПЕ	Bosim datchigi



1.4-rasm. Laboratoriya qurilmasining sxemasi.

O'lchanishi kerak bo'lgan parametrlar: 1- idish ichidagi bosim; 2 - hajm.


Laboratoriya qurilmasining sxemasi 1.4-rasmda ko'rsatilgan va geometrik ГС idishini (shaffof plastik silindr) yagona konstruksiyadan tashkil topgan hajm o'zgarishini hisobga olivchi datchikni o'z ichiga oladi. Hajm o'zgarishi uning ichidagi porshenni Π oldinga siljitim orqali o'zgartiriladi, РΠ harakatlantirish uchun tutqichni qo'lda aylantirish orqali amalga oshiriladi. Gaz bosimi bosim datchigi orqali o'lchanadi u vakuum shlangi orqali geometrik idishga ulangan.

Porshenni harakatlantiruvchi vintning dastagini bir xilda aylantirish sharti bilan idishning ichidagi gazning harorati idish devorlaridagi atrof-muhit haroratiga teng bo'lishi ta'minlanadi. Aniqroq natijalarga erishish uchun siz ГС geometrik idishini xona haroratidagi suvgaga tushirishingiz mumkin.

### **Laboratoriya ishni bajarish ketma-ketligi**

1. 1.4-rasmda keltirilgan laboratoriya qurilmasining sxemasi bilan tanishing. Laboratoriya ishlarini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmada keltirilgan ishning nomi va maqsadiga asoslangan holda, o'rganilayotgan jarayon haqidagi asosiy ma'lumotlarni kiritish uchun hisobot shaklga 1.1-jadvalni tayyorlang.
2. Stendni 220 V tarmoqqa ulang.

3. Avtomatlashirilgan stendni kompyuterning USB ulagichiga ulang.
4. Avtomatik quvvat manbai BA, “Tarmoq 220 V” (Сеть 220В) ni yoqing.
5. Dasturni yoqing **MeasLAB** Programsi Dasturidan “**Izotermik jarayon**” (“Изотермический процесс”) yozilgan so‘zni ustiga kursorni (strelkani) qo‘yib kompyuter sichqonichasidaning chap tomon tugmasini bosishingiz bilan dastur ishga tushiriladi.



Kompyuter ekranida yuqoridagi rasm ko‘rinadi. Kompyuter ekranidagi “**старт**” so‘zi ustiga kursonini (strelkani) qo‘yib, sichqonchani chap tomoni bosiladi, shu bilan ma’lumotlar olish bo‘yicha dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranidagi (sxema, grafik, jadval, so’zlarini ustiga kursonini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomon tugmasi bosish bilan) tadqiqot natijalari bo‘yicha ma’lumotlar olishga erisxiladi.

6. Hajm datchigini sozlang. TK Uchitalik klaponni oching, 1.4-rasm (atmosfera havosi bilan ulang) va porshenni o‘rta holatga o‘tkazing, shunda porshen chizig‘idagi belgi hajm datchigi to‘g‘ri keladi. Kompyuter ekranidagi “**Tashlab yuborish**” (“**Сброс**”) yozilgan so‘zni ustiga kompyuter ekranidagi kursorni (strelkani) qo‘yib sichqonchaning chap tomonni bosing.

7. Uchitalik klaponni oxirigacha yoping.

8. РП harakatlanuvchi dastagi tutqichini sekin burab, porshenni tushirish bilan porshenni holatini boshqa joyga o‘tkazing. Porshenni harakatlanayotganda havo parametrlari o‘zgaradi.

9. Porshenni harakatini 5-10 ta nuqtada o‘lchovlarni bajaring. Geometrik idishdagi bosim 100 kPa dan oshmasligi kerak.

10. Avtomatik quvvat manbai BA, “Tarmoq 220 V” (Сеть 220В) ni tarmoqdan o‘chiring.

### O‘lchov natijalarini qayta ishlash

Mendeleyev-Klapeyron tenglamarasidan foydalangan holda:

1. Idishdagi gazning massasini quyida keltirilgan formulaga muvofiq hisoblang:

$$m = \frac{P_1 V_1 M}{R T_1}$$

bu yerda  $P_1, V_1, T_1$ , mutloq (absolyut) bosim, hajm va atrof-muhit haroratining boshlang‘ich qiymatlari;

$$p = p_{\text{atm}} + p_{\text{ortiq}},$$

tekshirilayotgan hajmdagi mutloq (absolyut) bosim atmosfera bosimi ( $p_{\text{atm}}$ ) va germetik idishning bo‘shlig‘idagi ortiqcha bosim ( $p_{\text{ortiq}}$ ) yig‘indisiga teng;

$T=t+273,15$ , absolyut harorat;

m - gazning massasi;

M - gazning molyar massasi (havo uchun,  $M = 0,029 \text{ kg / mol}$ );

R = 8.31 ( j / mol\*K ) - universal gaz doimiysi.

2. Havoni siqishning umumiy ishini hisoblang:

$$A_{1-n} = \frac{m}{M} R T \ln \frac{P_n}{P_1}$$

2.Kuzatishlar natijalari asosida izotermik jarayonning  $P=f(V)$  grafigi tuziladi, tenglama konstantasini aniqlang va hisoblangan jarayon egri chizig‘ini chizing.

O‘lchov va hisoblash natijalari 1.1-jadvalda keltirilgan

1.1-jadval

Nº	V, ml	$p_{\text{ortiq}}$ , kPa	P, Pa	m, kg	A, dJ
1					
2					
3					
....					
i=n					

### Hisobot shakli

- Qisqacha nazariy qoidalarni keltirig.
- Laboratoriya qurilmasining sxemasi va uning ishlash jarayonini keltiring.
- O‘lchov va hisoblash natijalari.
- Jarayon grafiklari.
- Olingan natijalarni tahlil qilish.

## Nazorat savollari

1. Doimiy haroratda sodir bo‘ladigan termodinamik jarayon qanday nomlanadi?
2. Boyl-Mariot qonunini tuzing.
3. Sizga ma‘lum bo‘lgan harorat shkalalarini sanab o‘ting. Bir harorat shkallasidan ikkinchisiga o‘zgartish qanday amalga oshiriladi?
4. Izotermik jarayonda nima uchun ideal gazning ichki energiyasi o‘zgarmaydi?
5. Agar gaz haqiqiy gaz sifatida qabul qilinsa, uning ichki energiyasi o‘zgaradimi?
6. Nima uchun gazning izotermik kengayish (siqilish) jarayoni juda sekin kechishi kerak?
7. Izotermik jarayonda gazning ichki energiyasida qanday o‘zgarishlar yuz beradi?
8. Agar geometrik idishdagi havo harorati ko‘tarilsa, izoterma konstantasi qanday bo‘ladi? Keyin izotermik jarayonning diagrammasi qanday ko‘rinishga ega bo‘ladi?

### 1.4. Izobarik jarayonini o‘rganish

**Ishning maqsadi:** o‘zgarmas bosimdagi yopiq idishdagi gazning parametrlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash.

#### Ishning vazifalari

1. Gey-Lyusak qonunini eksperimental usul bilan tekshirish.
2. Gazni isitish uchun sarflangan issiqlik miqdorini aniqlash.
3. Izobar jarayonning grafiklarini qurish.

#### Umumiylar


**Izobarik** - bu termodinamik jarayon bo‘lib, unda bosim o‘zgarmas  $p = const$  (1.5-rasm). Agar gazga issiqlik berilganda, uning bosimi o‘zgarmasdan kengaysa, u holda berilgan barcha issiqlik entalpiyaning o‘zgarishiga sarflanadi.

$$dQ = dI + VdP, \quad (1.8)$$

yoki  $P = const$  bo‘lganda

$$dQ_p = dI = C_p T, \quad (1.9)$$

bu yerda  $C_p$  - o‘zgarmas bosimdagi havoning issiqlik sig‘imi.



1.5-rasm. Izobar jarayonlar.

Agar ishchi gaz sifatida ishlataladigan havo past bosimda bo‘lsa, uni ideal gaz deb hisoblash mumkin, uning holati Mendeleev-Klapeyron tenglamasi bilan tavsiflanadi.

Ideal gazlar uchun izobar jarayoni Gey-Lyussak qonuni bilan ifodalanadi:

Gazni o‘zgarmas bosimi va o‘zgarmas massasi, kengayish natijasida egallagan gaz hajmini, uning haroratiga nisbati o‘zgarmas bo‘lib qoladi

$$\frac{V}{T} = \text{const}, \quad \text{yoki} \quad \frac{\Delta V}{\Delta T} = \text{const} \quad (1.10)$$

Agar gazga ma’lum hajmda issiqlik berilsa va shu bilan birga uning hajmi o‘zgaradi, shunday qilib uning bosimi o‘zgarmaydi. Bosim o‘zgarmaydigan tarzda oshirilsa, u holda izobarik kengayish jarayoni amalga oshiriladi. Agar bir vaqtning o‘zida  $\Delta V$  va  $\Delta T$  qayd etilgan bo‘lsa, u holda jarayon egrisi chizig‘ini qurish mumkin, (1.10) tenglama yordamida aniqlanadi va hisoblash natijalariga asoslangan holda jarayon egrisi chizig‘i ko‘riladi.

Tajriba qurilmasi yordamida amalga oshiriladi, uning devorlarining elastik xususiyatlari ichki va tashqaridagi kichik bosim farqi ta’sirida uning hajmini ma’lum chegaralarda o‘zgartirishga imkon beradi.

Amaldagi qurilmada suv idishga solingan  $80^{\circ}\text{C}$  haroratli issiqliq suvliniga germetik qobirg‘ali idish botirish mumkin.

Ushbu qurilmada foydalanib, o‘zgarmas  $p = \text{const}$  bo‘lgan holda berilgan gaz massasi va hajmining haroratga bog‘liqligini ko‘rsatish mumkin (Gey-Lyussak qonuni). Tekshirish uchun gazning hajmi va haroratini ikki holatda doimiy bosimda o‘lchash va tenglikni tekshirish kerak

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{T_1}{T_2} \quad (1.11)$$

Shuning uchun issiqlik berilganda gaz kengayadi va hajmi ortadi, issiqlik chiqarilganda esa gaz siqiladi va hajmi kamayadi.

Isitish (sovutish) paytida, P bosimida bajarilgan ishni hisoblash mumkin, formula 1.3, 1.5, ga qarang.


$$A = P(V_2 - V_1) \quad (1.12)$$

$$\Delta Q = \Delta U + A \quad (1.13)$$

bu yerda  $\Delta U$  - ichki energiyaning o'zgarishi.

O'lchovlarni amalgalashirayotganda, gaz harorati germetik idishning butun hajmida bir xil bo'lishi va o'zi ma'lum bir issiqlik sig'imiga ega bo'lgan harorat datchigi orqali kuzatish mumkinki, atrofdagi gaz bilan muvozanatga kelish uchun ma'lum vaqt o'tadi. Buning uchun gaz haroratining o'zgarishi yetarlicha sekin amalgalashirayotganda oshirilishi kerak.

Tajribadagi gaz issiq suv bilan isitiladi. Gaz bilan germetik qobirg'ali idish tekshirilayotgan issiq suvgaga botirganda germetik qobirg'ali idish devorlarining tez isishiga olib keladi. Germetik qobirg'ali idish ichidagi gaz haroratining bir xil taqsimlanishini o'rnatish ancha sekinroq amalgalashirayotganda oshadi. Gaz haroratini tenglashtirishning sensor datchik yordamida kuzatiladi. Eksperimental natijalarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun gaz germetik qobirg'ali idish havoda sovutilganda so'ng ma'lumotlarni yozib olish kerak.



Belgilanishi	Nomlanishi
ГГС	Germetik qobirg'ali idish
EB	Suv idishi
BK	Havo klapani
VE	Hajm datchigi
TE	Hrorat dachigi

1.6-rasm. Sxematik diagramma


O'lchanadigan parametrlar:

1 - idish ichidagi harorat; 2 – hajm.

Izobarik jarayonni namoyish qilish qurilmasining sxemasi 1.6-rasmda keltirilgan. Germetik qobirg‘ali idish (qobirg‘ali yon yuzasiga ega bo‘lgan shaffof plastik silindrsimon idish) bo‘lib, u hajmni o‘zgartirish datchigi bilan birgalikdagi konstruksiyaga ega. Qurilmaga o‘rnatilgan elementlari harakatlanichi asosini vertikal o‘qi bo‘ylab siljitim imkoniyati ega. Silindrning asosiy hajmini o‘zgarish datchiki bilan mustahkam o‘rnatilgan bo‘lib qovurg‘ali devor silindrining hajmi ro‘yxatga olinadi.

### **Laboratoriya ishni bajarish ketma-ketligi**

1. 1.6-rasmda keltirilgan laboratoriya qurilmasining sxemasi bilan tanishing. Laboratoriya ishlarini o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmada keltirilgan ishning nomi va maqsadi asoslangan holda, o‘rganilayotgan jarayon haqidagi asosiy ma’lumotlarni kiritish uchun hisobot shaklini 1.2-jadvalni tayyorlang.
2. Stendni 220 V tarmoqqa ulang.
3. Avtomatlashtirilgan stendni kompyuterning USB ulagichiga ulang.
4. Avtomatik quvvat manbai BA, “Tarmoq 220 V” (Сеть 220В) ni yoqing.
5. Dasturni yoqing MeasLAB Programsi Dasturnidan “**Izotermik jarayon**” (“**Изобраний процесс**”) yozilgan so‘zni ustiga kursorni(strelkani) qo‘yib kompyuter sichqonichasidagi chap tomon tugmasini bosishingiz bilan dastur ishga tushiriladi.



Kompyuter ekranida rasm ko‘rinadi. Kompyuter ekranidagi “старт” so‘zi ustiga kursorini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomoni bosiladi, shu bilan ma’lumotlar olish bo‘yicha dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranidagi (sxema,

grafik, jadval so‘zlarini ustiga kursorini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomon tugmasi bosish bilan) tadqiqot natijalari bo‘yicha ma’lumotlar olishga erisxiladi.

6. EB shisha idishga 80 °C oshmagan haroratdagi issiq suv quying.

7. BK klapanidan havo chiqarib yuboring. Qovirg’ali Silindrni ehtiyyotkorlik bilan oxirgi egallagan hajmigacha siqing. Kompyuter ekranidagi “**Qayta o‘rnatish**” (“**C6poc**”) tugmasini bosing.

8. BK klapani mahkam joylashtiring. Idishning germetik holatida ekanligiga ishonch hosil qiling (hajm ko‘rsatkichi o‘zgarmas bo‘lishi kerak).

9. Germetik idishni issiq suvgaga botiring.

10. Harorat sezilarli darajada o‘zgarishini to‘xtatgandan so‘ng, havo rezervuarini (Germetik idishni) issiq suv idishidan olib tashlang. Idishdagi havo sovib keta boshlaydi, shu bilan birga uning parametrlari o‘zgaradi.

11. Germetik idishni har bir hajmini o‘zgarishi uchun o‘lchov natijalarini 1.2-jadvalga kiriting.

12. Haroratni sezilarli o‘zgarishi to‘xtatgandan so‘ng, o‘lchashni to‘xtating.

13. Qurilmani o‘chirish tugmasi BA, “**Tarmoq 220 V**” (**Сеть 220В**) bilan o‘chiring.

Eslatma:

Tajribalar oxirida BK klapaning yechib oling, qovirg’ali idishning tanasini biroz cho‘zing, BK klapanni joyiga soling va keyingi tajribalargacha shu holatda qoldiring.

### **O‘lchov natijalarini qayta ishslash**

Mendeleyev-Klapeyron tenglamasidan foydalaniib, idishdagi gazning massasini hisoblang

$$m = \frac{P_1 V_1 M}{R T_1}$$

bu yerda  $P_1, V_1, T_1$ , bosim, hajm va haroratning mutloq boshlang‘ich qiymatlari;

$$P = P_{\text{atm}}$$

O‘rganilayotgan hajmdagi  $P_{\text{atm}}$  mutloq bosim atmosfera bosimiga teng ( $P_{\text{atm}}$ ) ;

$$T = t + 273,15$$

T - absolyut harorat;

m - gazning massasi;

M - gazning molyar massasi (havo uchun,  $M = 0,029 \text{ kg} / \text{mol}$ );

R = 8.31 - universal gaz doimiysi, ( $\text{J} / \text{mol}^{\circ}\text{K}$ );

## 2. Umumiy kengayishdagi ishlarini hisoblang

$$A_{1-n} = \frac{m}{M} RT \ln \frac{V_1}{V_n}$$

3.Yuqoridagi ifodaga asoslanib, formula bo'yicha havoni isitish uchun sarflangan issiqlikning umumiy miqdorini aniqlang

$$Q = mc_p(t_2 - t_1)$$

bu yerda  $c_p$  - doimiy bosimdagি gazning issiqlik sig'imi (havo uchun  $c_p = 1,007 \text{ kD/(kg *K)}$ ) .

Olingan qiymatlarni 1.2- jadvalga kiriting.

Kuzatishlar natijalari asosida  $T=f(V)$ , izobar jarayonning grafigi chiziladi, tenglama konstantasini aniqlang va hisoblangan jarayon egri chizig'ini chizing.

O'lchov va hisoblash natijalari 1.2-jadvalda keltirilgan

1.2-jadval

Nº	V, ml	t, °C	T, K	m, kg	A, dJ	Q, dJ
1						
2						
3						
....						
i=n						

## Hisobot shakli

1. Qisqacha nazariy qoidalar.
2. Laboratoriya qurilmasining sxemasi va uning ishslash jarayonini keltiring.
3. O'lchov va hisoblash natijalari.
4. Jarayon grafiklar.
5. Olingan natijalarni tahlil qilish.

## Nazorat savollari

1. Izobar jarayonning ta'rifi.
2. Termodinamik diagrammalarda izobar jarayonning tasviri.
3. Issiqlik dvigatellari sikllarida izobar jarayondan foydalanish.
4. Nima uchun bu ishda havo sovutish jarayonini izobarik deb hisoblash mumkin?
5. Gaz parametrlarini aniqlashda Gey-Lyusak qonunidan foydalanish uchun qanday shartlar bajarilishi kerak?

## 1.5. Izoxorik jarayonini o'rganish


**Ishning maqsadi:** o'zgarmas hajmga ega bo'lgan yopiq idishdagi gaz parametrlarini o'z-aro bog'liqligni aniqlash.

### Ishning vazifalari

1. Charlz qonunini tadqiqot yo'li bilan tekshirish.
2. Jarayon egri chiziqlarini ( $P$  -  $T$ ) koordinatalarida chizing.

### Umumiy ma'lumot

**Izoxorik** - Ishchi jismning hajmi o'zgarmas holda bajariladigan termodinamika jarayoni **izoxorik jarayon** deyiladi. (1.7-rasm).



1.7-rasm - Izoxorik jarayonlar

O'zgarmas hajmga ega bo'lga mustahkam yopiq idishdagi gazga issiqlik berilganda, izoxorik jarayon sodir bo'ladi va gaz ish bajarmaydi. Izokorik jarayon davomida gazga berilgan issiqlik uning ichki energiyasini oshirish uchun sarflanadi.

$$=0$$

$$Q = \Delta U + P\Delta V$$

$$Q = \Delta U = C_V \Delta T$$

Kichkina bosim va past harorat davrida gazning holati Mendeleyev-Klapeyron tenglamasi bilan asoslangan holda yoziladi va harorat unchalik katta bo'limgan darajada o'zgarganligi sababli jarayon kvazistatik muvozanatlari bo'lib chiqadi.

Ideal gazlar uchun Sharil qonunini kuyidagicha yozamiz:

Ideal gazning bosimi uning termodinamika haroratiga proporsional ravishda o'zgaradi (real gazlar Sharil qonuniga bo'yasinmaydi)

$$\frac{P}{T} = \text{const}$$

Ushbu ishni hisoblashda taqqoslash usulidan foydalilanadi. Agarda jarayon izoxor bo'lsa  $P/T$  nisbatlari o'zgarmas bo'lib qoladi.


Gaz bosimining  $P$  ning harorat  $T$  ga bog'liqligi (Celsiy gradusida) formula bilan ifodalanadi

$$P = P_0(1+at)$$

bu yerda  $P_0$  - 0 °C haroratda gaz bosimi;

a-gaz bosimining harorat koeffitsiyenti. Harorat koeffitsiyentining nazariy qiymati  $1/273 = 0,0037$  ga teng.

Jarayon davomida bosim va haroratning o‘zgarishini qayd qilib, (P-T) koordinatalarda egri chiziq qurish va hisoblangan natjalariga asosan egri chiziqni qurish orqali o‘zgarmas ekanligini aniqlash mumkin.



1.8-rasm. Sxematik diagramma

O‘lchanishi lozim bo‘lgan parametrlar:

1 - idish ichidagi harorat; 2 - idish ichidagi bosim.


Izoxorik jarayonni o‘rganish uchun (1.8-rasm) keltirilgan ГГС muhrlangan shisha idishidir. Shisha idish qopqog‘ida harorat va bosim datchiklariga, ularni o‘zgarishi haqida ma’lumotlarni berish uchun sezuvchi element o‘rnatilgan.

### Laboratoriya ishini bajarish ketma-ketligi

1. 1.8-rasmda keltirilgan laboratoriya qurilmasining sxemasi bilan tanishing. Laboratoriya ishlarini o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmada keltirilgan ishning nomi va maqsadi asoslangan holda, o‘rganilayotgan jarayon haqidagi asosiy ma’lumotlarni kiritish uchun hisobot shaklini 1.3-jadvalni tayyorlang.

2. Stendni 220 V tarmoqqa ulang.  
3. Qurilmadagi avtomatik quvvat manbai BA, “Tarmoq 220 V” (Сеть 220В) ni yoqing.

4. Avtomatlashirilgan stendni kompyuterning USB ulagichiga ulang.  
5. Dasturni yoqing MeasLAB Programsi Dasturnidan “**Izoxorik jarayon**” (“Изохорический процесс”) yozilgan so‘zni ustiga kursorni(strelkani) qo‘yib kompyuter sichqonichasidagi chap tomon tugmasini bosishingiz bilan dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranida rasm ko‘rinadi.



Kompyuter ekranida rasm ko‘rinadi. Kompyuter ekranidagi “старт” so‘zi ustiga kurSORini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomoni bosiladi, shu bilan ma’lumotlar olish bo‘yicha dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranidagi (sxema, grafik, jadval, so’zlarini ustiga kurSORini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomon tugmasi bosish bilan) tadqiqot natijalari bo‘yicha ma’lumotlar olishga erisxiladi.

6. EB shisha idishiga  $60^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo‘lmagan haroratdagi issiq suv quying.

7. ГГС muhrlangan shisha idishini 3-5 daqiqa davomida issiq suvga botiring. (bu vaqt idish devorlarni va uning ichidagi havoni to‘liq isitish uchun kerak).

8. Harorat sezilarli darajada o‘zgarishni to‘xtatgandan so‘ng, idishni issiq suvdan olib tashlang.

9. Idish atrofdagi havo bilan aloqa qilish tufayli soviydi, natijada idish ichidagi havo parametrlari o‘zgaradi. O‘lchov natijalari 1.3-jadvalga kiritilgan.

10. Idish harorati o‘zgarishi taxminan xona haroratiga teng bo‘lishi bilanoq sezilarli darajada o‘zgarishi to‘xtaydi va o‘lchovlarni to‘xtating.

11. Avtomatik quvvat manbai BA, “Tarmoq 220V” (Сеть 220В) ni tarmoqdan o‘chiring.

### **Olingan natijalarini qayta ishlash**

Mutloq(absolyut) bosim va haroratni hisoblang:

- tekshirilayotgan hajmdagi bosim atmosfera bosimi ( $P_{atm}$ ) va muhrlangan idishning ichidagi ortiqcha bosim ( $P_{ortiq}$ ) yig‘indisiga teng.

$$P = P_{atm} + P_{ortiq}$$

mutloq(absolyut) harorat,

$$T = t + 273,15$$

$\frac{P}{T}$  nisbatlarini har bir isitilgan nuqtalardagi hisoblanadi.

Tajriba natijalari asosida (P-T) koordinatalarda jarayon egri chizig'i tuziladi. Jarayon tenglamarasidagi konstantaning o'rtacha qiymati hisoblab chiqiladi va taxminiy jarayon egri chizig'i grafikda chiziladi.

Olingan natijalari va hisoblash 1.3-jadvalda keltirilgan

1.3-jadval

Nº	$\tau, \text{c}$	$P_{\text{ortiq}}, \text{Pa}$	$t, {}^{\circ}\text{C}$	$P, \text{Pa}$	$P / T$
1					
2					
3					
....					
i=n					

### Hisobot shakli

1. Qisqacha nazariy qoidalar.
2. Laboratoriya qurilmasining sxemasi va uning ishlash jarayonini keltiring.
3. O'lchov va hisoblash natijalari.
4. Jarayon grafiklar.
5. Olingan natijalarni tahlil qilish.

### Nazorat savollari

1. Izoxorik jarayonga ta'rif bering.
2. Ideal gazlar uchun qaysi qonun izoxorik jarayonni tavsiflaydi?
3. Ideal va real izoxorik jarayonlarni o'rganishda qanday farq bor?
4. Tajribada qanday kattaliklar o'lchanadi?
5. Charlz tenglamarasini keltiring.
6. Gaz bosimining harorat koeffitsiyentining fizik ma'nosi nima va u nima uchun juda muhim?
7. (V - T) va (P - V) koordinatalarida izoxorik jarayonni ko'rsating.
8. Tajribada gaz issiq suvda qizdirilganda ish bajaradimi?

## 1.6.Politropik jarayonlar tadqiqot etish mo‘ljallangan qurilma bo‘yicha ma’lumotlar


Gaz qonunlarini o‘rganish uchun universal laboratoriya qurilmasi (1.9-rasm) tadqiqot maqsadlariga javob beradi va quyidagilarga olish imkon beradi:

-politropik izojarayonlarning asosiy xususiyatlarini (izotermik, izoxorik, izobar va izoetropik) o‘rganish;

-politropik kursatkichning qiymatlarini, ishchi jismning parametrlarini va termodinamik jarayonning funksiyalarini, shu jumladan bevosita kuzatishdan yashiringanlarini, xuddi shuningdek bir lahzali harorat, ichki energiyaning o‘zgarishi, entropiya o‘zgarishi va boshqalarni;

-talabalarni termodinamik jarayonlarni boshqarish va boshqarishning zamonaviy usullari bilan tanishtirish.

200 kPa ortiqcha bosim chegarasiga o‘rnatilgan BK havo kompressor qurilma (1.9-rasm) berilgan. Kompressorda MH bosim o‘lchagini va o‘rnatilgan bosimni boshqaruvchi ПК xavfsizlik klapan bilan jihozlangan. Qurilmaga shuningdek, 2000 ml hajmli zanglamaydigan po‘latdan yasalgan germetik idishni ГС old panelga HЭ isitish elementi bilan o‘rnatilgan, tiqin jo‘mragi PB2, ortiqcha bosim ӘК jo‘mrak orqali chiqarib tashlash mumkin. Idishdagi havo harorati va bosimni o‘lchovchi dachiklarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot davridagi datchiklarning ko‘rsatkichlaridagi ma’lumotlarni doimiy ravishda kompyuter tizimida yozib boriladi va avtomatik qayta ishlanadi.



1.9-rasm. Sxematik diagramma

Bu ishda, adiabatik jarayon tez amalga oshadi, taxminan, sekundning o‘ndan bir qismi atrofda atmosferaga ortiqcha bosimni tez chiqishi bilan erisxiladi.

## 1.7. Idish ichidagi gazning bosim, harorat va hajmining o'zgarishi


Ishning maqsadi va vazifalari: gazning bosimi, harorati va hajmini o'zgarishi o'lchash.

### Umumiylumot

Gazning bir termodinamika holatdan ikkinchi termodinamika holatga o'tishi, ya'ni gaz holatini o'zgarishining ketma - ketligi **termodinamik jarayon** deyiladi.. Qoidaga ko'ra, har bir jarayonda **V, P, T** jismlar holatining barcha uchta parametri - hajm, bosim va harorat o'zgaradi.

### Laboratoriya ishini bajarish ketma-ketligi

1. 1.9-rasmda keltirilgan laboratoriya qurilmasining sxemasi bilan tanishing. Laboratoriya ishlarini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmada keltirilgan ishning nomi va maqsadi asoslangan holda, o'rganilayotgan jarayon haqidagi asosiy ma'lumotlarni kiritish uchun hisobot shaklini 1.4-jadvalni tayyorlang.
2. Havo kompressoridagi "Start" tugmasi yoqilgan bo'lishi kerak. PB2 jo'mrakni yoping.
3. Stendni 220 V tarmoqqa ulang.
4. Qurilmadagi avtomatik quvvat manbai BA, "Tarmoq 220 V" (Сеть 220В) ni yoqing.
5. Avtomatlashtirilgan stendni kompyuterning USB ulagichiga ulang.
6. Dasturni yoqing MeasLAB Programsi Dasturnidan "**Politropik jarayon**" ("Политропний процесс") yozilgan so'zni ustiga kursorni(strelkani) qo'yib kompyuter sichqonchasidagi chap tomon tugmasini bosishingiz bilan dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranida rasm ko'rindi. Kompyuter ekranidagi "старт"



so‘zi ustiga kursonini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomoni bosiladi, shu bilan ma’lumotlar olish bo‘yicha dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranidagi (sxema, grafik, tablitsa, so’zlarini ustiga kursonini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomon tugmasi bosish bilan) tadqiqot natijalari bo‘yicha ma’lumotlar olishga erisxiladi.

7. PB1 jo‘mrakni oching. BK3 kaliti yordamida ƏK elektr jo‘mragini qisqa vaqt ichida yoqing.

8. ƏK elektr- magnit klapan yopiq bo‘lishi kerak, BK3 o‘chirilgan.

9. Tadqiqotni boshlang va jarayon parametrlarini yozishni boshlang.

10. BK kompressorini BK1 kaliti bilan ishga tushiring.

11. Bosim 180-200 kPa ga yetganda, kompressorni BK1 kaliti bilan o‘chiring, PB1 jo‘mragini yoping.

12. Bosim va harorat parametrlarini 1.4-jadvalga yozing.

13. O‘lchovlar oxirida va natijalarni 1.4-jadvalga kiritishda ƏK (BK3) va PB2 nazorat jo‘magi yordamida havoni chiqarib yuboring.

14. Qurilmani avtomatik BA “Tarmoq 220 V” orqali o‘chiring.

### **Qabul qilingan natijalarni qayta ishlash**

Hajmi V bo‘lgan idishdagi gazning tegishli bosimlarda massasini hisoblang ( $P_0 \dots P_4$ )

$$m_i = \frac{P_1 V_1 M}{R T_1}$$

bu yerda  $P_1, T_1$  - bosim va haroratning mutloq(absolyut) qiymatlari;

m - gazning massasi, M - gazning molyar massasi (havo uchun, M = 0,029 kg / mol);

R - 8,31 J / (mol \* K) - universal gaz doimiysi.

O‘lchov va hisoblash natijalari 1.4-jadvalda keltirilgan

1.4-jadval

№	Holat parametri				
	t, °C	T, K	P <sub>ortiq</sub> , kPa	P, kPa	m,kg

## **Hisobot shakli**

1. Qisqacha nazariy qoidalar.
2. Laboratoriya qurilmasining sxemasi va uning ishlash jarayonini keltiring.
3. O‘lchov va hisoblash natijalari.
4. Jarayon grafiklar.
5. Olingan natijalarni tahlil qilish.

## **Nazorat savollari**

1. Politirop jarayonga ta‘rif bering.
2. Tajribada qanday kattaliklar o‘lchanadi?
3. Politirop jarayonga gazning bosimi, harorati va hajmini o‘zgarishi ko‘rsating.
4. Politirop jarayonga gaz ish bajaradimi?

## **1.8. Politirop jarayonini o‘rganish**

**Ishning maqsadi:** politropikni jarayonning termodinamik tahlil qilish va o‘rganish.

### **Ishning vazifalari**

1. Politropik indeksni aniqlash.
2. Ishchi suyuqlikdan chiqarilgan issiqlik miqdorini aniqlash.
3. P-V va T-S diagrammalarida jarayonlarni qurish.

### **Umumiylumot**

Ideal gazlarning termodinamik jarayonlari orasida politropik jarayonlar ajralib turadi, ularning aksariyati issiqlik dvigatellari va qurilmalarida amalga oshiriladi, chunki ularni tenglamaga bo‘ysungan holda yetarli aniqlik bilan politropik deb hisoblash mumkin.

$$PV^n = \text{const} \quad (1.14)$$

bu yerda  $n$  - politropik indeks, jarayon uchun  $-\infty$  dan  $+\infty$  gacha bo‘lgan istalgan qiymat konstantasini qabul qilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, politropik jarayon gazning solishtirma issiqlik sig‘imi o‘zgarmagan holda qoladigan termodinamik jarayondir. Politropik jarayonning cheklovchi alohida hodisalari izotermik, adiabatik, izobarik va izoxorik jarayonlardir.

Politrop jarayoni (ilgari aytib o’tganimizdek), eng umumiyl termodinamika jarayoni bo‘lib, boshqa jarayonlar uning xususiy hollaridir. Buning isboti uchun politrop ko’rsatkichi “ $n$ ” ga xususiy qiymatlar beramiz, ya’ni:

1) agar  $n = 0$  bo'lsa, u holda  $p\vartheta^0 = const$ , chunki  $\vartheta^0 = 0$  bo'ladi, yoki  $p=const$  **izobarik jaryonga** aylanadi.

2) agar  $p\vartheta^\infty = const$  yoki  $n = \infty$  bo'lganda izoxor,  $\vartheta = const$  bo'lib, **izoxorik jarayon tenglamasiga** aylanadi.

3) Agar  $n=1$  bo'lsa,  $p\vartheta = const$  **izotermik jarayon**.

4) Agar  $n=k$  bo'lsa,  $p\vartheta^k = const$  bo'lib, mos ravishda **adiabatik jarayonning tenglamalari** holiga aylanadi.

Izoprotsesslardan tashqari, atrof-muhit bilan issiqlik energiyasi almashmasdan sodir bo'ladigan adiabatik jarayonlar katta qiziqish uyg'otadi, ular uchun  $n=k$ .

$$k = \frac{c_p}{c_v}$$

bu yerda  $c_v$  - o'zgarmas hajmdagi issiqlik sig'imi,

$c_p$  - o'zgarmas bosimdagagi issiqlik sig'imi.

Issiqlik sig'imi jismlarning asosiy termofizik xususiyatlardan biridir. Gazlar uchun bu ularga issiqlik ta'minoti miqdori, usuli va tezligiga bog'liq. Har qanday politropik jarayonda bu oson uch kattalik bo'yicha hisoblanadi - politropik  $n$  ning o'zi ko'rsatkichi, o'rganilayotgan gazning o'zgarmas hajmdagi izoxorik issiqlik sig'imi  $c_v$  va uning issiqlik sig'imi  $c_p$  o'zgarmas bosimdagagi nisbati bo'yicha.


$$C_p = C_v \left( \frac{n-k}{n-1} \right) \quad (1.15)$$

bu yerda  $c_v$  - gazning o'zgarmas hajmdagi solishtirma issiqlik sig'imi, normal sharoitda havo uchun  $0,72 \text{ kJ/(kg *K)}$  ga teng;

$c_p$  - havo uchun  $1 \text{ kJ/(kg *K)}$  ga teng o'ziga xos izobar issiqlik sig'imi,

$k = c_p / c_v$  - havo uchun 1,4 ga teng adiabatik indeks.

Termodinamik jarayonlarni tahlil qilish uchun P-V va T-S diagrammalaridan keng foydalaniladi (1.10-rasm). Bunda P-V diagrammasidagi izoxorik ( $n=\infty$ ,  $c=c_v$ ) va izobarik ( $n=0$ ,  $c=c_p$ ) jarayonlar mos diagrammalarning o'qlariga parallel chiziqlar bilan, izotermik ( $n=1$ ,  $c=\infty$ ) tasvirlangan va adiabatik (yoki boshqacha tarzda  $n=k$  va  $c=0$  bilan izentropik) T-S diagrammasidagi o'qlarga parallel. Bunday holda, P-V diagrammasidagi jarayon egri chizig'i ostidagi maydon termodinamik jarayonning ishiga mos keladi va T-S diagramma jarayonga jalb qilingan issiqlik miqdori.



1.10-rasm. P-V va T-S dagi politropik jarayonlarning xulosa grafiklari koordinatalar.


Diagrammalardan ijobiy yoki salbiy ish, issiqlik bilan ta'minlash yoki olib tashlash, ichki energiya va ishchi jismning entalpiyasining ortishi yoki kamayishi bilan jarayonlar sodir bo'lgan sohalarni aniqlash oson. Bu zonalarning chegaralari mos ravishda izoxora, adiaba va izoterm hisoblanadi. Shunday qilib, 1.10 rasmda shtrixlangan qisimlar manfiy issiqlik sig'imi bo'lgan politropik jarayonlarga to'g'ri keladi, ular uchun  $k > n > 1$ .

Ushbu jarayonlar ishchi jismni siqish va kengaytirish uchun issiqlik mashinalarda katta amaliy ahamiyatga ega. Jismganda tashqi ish salbiy bo'lib, ish jismidan issiqlik chiqariladi. Biroq, ichki energiyaning o'zgarishi ijobiydir, chunki gazni siqish uchun bajarilgan ish, chiqarilgan issiqlikdan kattaroqdir.

Kengayish vaqtida ham kiruvchi issiqlik, ham ishchi jismning ichki energiyasi hisobiga ijobiy ish bajariladi va uning harorati pasayadi.

#### **Politropik jarayonlarni o'rGANISH quyidagilarni o'Z ichiga oladi:**


- ishchi jismning asosiy parametrlari o'rtasida eksperimental bog'liqliklarni o'rnatish;
- olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, jarayonning matematik modelini tanlash, uning ideal gazlarning molekulyar-kinetik nazariyasiga muvofiqligini baholash va politropik ko'rsatgichini aniqlash;
- termodinamik funksiyalarni hisoblash va P-V diagrammasida jarayonlarni qurish.



1.11-rasm. P-Vdiagrammasidagi havo parametrlarini o‘zgartirishga misol

### Labaratoriya ishining bajarilish ketma-ketligi

1. 1.9-rasmda keltirilgan laboratoriya qurilmasining sxemasi bilan tanishing. Laboratoriya ishlarini o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmada keltirilgan ishning nomi va maqsadi asoslangan holda, o‘rganilayotgan jarayon haqidagi asosiy ma’lumotlarni kiritish uchun hisobot shaklini 1.5-jadvalni tayyorlang.
2. Stendni 220 V tarmoqqa ulang.
4. Qurilmadagi avtomatik quvvat manbai BA, “Tarmoq 220 V” (Сеть 220В) ni yoqing.
5. Avtomatlashirilgan stendni kompyuterning USB ulagichiga ulang.
6. Dasturni yoqing MeasLAB Programsi Dasturnidan **“Politropik jarayon”** (**“Политропний процесс”**) yozilgan so‘zni ustiga kursorni(strelkani) qo‘yib kompyuter sichqonichasidagi chap tomon tugmasini bosishingiz bilan dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranida rasm ko‘rinadi.



Kompyuter ekranidagi “срапт” со‘зи устига курсорини (стрелкани) со‘йиб сичқончани чап томони босилади, шу билан ма’лумотлар олиш бо‘йида дастур исхга туширилади. Компьютер экранидаги (схема, график, таблица, со‘зларини устига курсорини (стрелкани) со‘йиб сичқончани чап томон тугмаси босиш билан) тадқиқот натижалари бо‘йида ма’лумотлар олишга ерсхилади.

7. PB1 со‘мракни очинг. BK3 калити юрдамда ЭК электр-магнит клапан со‘мрагини киска ваqt ичida yoqing.

8. ЭК электр-магнит юмрак япиқ бо‘лиши керак, BK3 со‘чирилган.

9. Тадқиқотни бoshlang va jarayon parametrlarini yozishni boshlang

10. BK kompressorini BK1 калити билан исхга тушiring.

11. BK2 калитини босиб BK kompressorini исхга тушiring, бу holda политропик havoni siqish ( $0—1$ ) jarayoni sodir бо‘лади, 1.11-рasm, бунда босим  $P_3 = P_0$  dan  $P_1$  ga va harorat  $T_1$  dan  $T_0$  гача ко‘тарилади.

12. Босим 180-200 kPa ga yetganda, BK 2 калити билан компрессорни со‘чиринг, PB1 юмракнини япинг va 1-2 изокорик jarayonni кузатинг, бунда герметик идисидаги хаво  $T_1$  dan  $T_o$  гачаsovutilади, босим esa  $P_1$  dan  $P_2$  гача камайади.

13. Keyinchalik, BK3 калити билан ЭК электро-магнит клапанини япинг, тандаги босим кескин пасяди, 2-3 jarayon. Натижада, тандаги harorat  $T_o$  dan  $T_z$  гача тушади. Тизимдаги босим  $P_3 = P_o$  ga teng бо‘лиши биланоq, BK3 ni со‘чирib, ЭК электр-магнит клапанини япинг.

14. BK2 тумчаси юрдамда исигични япинг, havoning 3-4 изокорик исими jarayonini кузатинг, бунда герметик идисидаги harorat  $T_3$  dan  $T_o$  гача, босим esa  $P_3$  dan  $P_4$  гача ко‘тарилиши керак.

15. Keyin, PB2 асосий чиқариш со‘мрагини секин очиб, 4-0 jarayonni кузатинг, бунда havoni drossellash билан, босим  $P_4$  dan  $P_3 = P_0$  гача камайади, entalpiya va harorat doimiy бо‘lib qoladi.

16. Qurilmani avtomatik BA “Tarmoq 220 V” orqali со‘чиринг.

*Eslatma:Keyingi tajribalarni o‘tkazishda isitish elementi TЭH va ГC ning muhrlangan idishidagi havo xona haroratiga yaqin haroratgacha sovishi kerak. Buning uchun siz tizimni tozalashingiz kerak:*

- PB1 кранини очинг;

- kompressorni BK1 калити билан япинг, босим 200-220 kPa ga yetganda, бу босимни герметик holatda ushlab turish uchun PB2 со‘мракни бироз очинг.

17. 1.5-jadvalga barcha chegara parametrlarini kriting va hisob-kitoblarni amalgaloshiring.

18. Nazorat savollariga javob bering va bajarilgan ishlardan yuzasidan mustaqil xulosalar chiqaring.

### **Olingan natijalarini qayta ishlash**

Hajmi V bo‘lgan idishdagi gazning tegishli bosimlarda massasini hisoblang ( $P_0 \dots P_4$ )

$$m_i = \frac{P_1 V_1 M}{R T_1}$$

bu yerda  $P_1, T_1$  - bosim va haroratning mutloq(absolyut) qiymatlari;

m - gazning massasi, M - gazning molyar massasi (havo uchun, M = 0,029 kg / mol);

R - 8,31 J / (mol \* K) - universal gaz doimiysi.

U holda molyar massa quyidagiga teng bo‘ladi

$$\vartheta = \frac{m}{M}$$

Har bir chegara nuqtasi uchun tadqiqot etiladigan jarayonlarini natijalari 1.5-jadvalda qayd eting.

Turli jarayonlar uchun politropik ko‘rsatgichini hisoblang

$$n_i = \frac{\ln \left( \frac{P_{i-1}}{P_i} \right)}{\left( \frac{V_i}{V_{i-1}} \right)}$$

O‘lchov va hisoblash natijalari 1.5-jadvalda keltirilgan

1.5-jadval

Holat parametri	Jarayon nuqtasi va raqamlari					
	0	1	2	3	4	0
t, °C						
T, K						
P <sub>ortiq</sub> , kPa						
P, кПа						
m, kg						
	jarayon					
	0-1	1-2	2-3	3-4	4-0	0-1
n						

## **Hisobot shakli**

1. Ishning maqsadi va vazifalari.
2. Qisqacha nazariy qoidalar.
3. Laboratoriya qurilmasining sxemasi va uning ishlash jarayonini keltiring.
4. O'chov va hisoblash natijalari.
5. Jarayon grafiklar.
6. Olingan natijalarni tahlil qilish.

## **Nazorat savollari**

1. Qanday jarayon politropik deb ataladi?
2. Asosiy izoprotsesslar uchun politropik ko'rsatkichlar qanday?
3. Qaysi jarayonlarda ichki energiyaning o'zgarishi ortadi va qaysilarida kamayadi?

### **1.9. Ichki energiya va entropiya bajargan ishini aniqlash**

**Ishning maqsadi:** ichki energiya va entropiyani aniqlash bajargan ishni aniqlash

#### **Ishning vazifalari**

1. Bajargan ishni aniqlash.
2. Ichki energiya va entropiyaning o'zgarishi.

#### **Umumiylar**

Termodinamik hisoblarda ishchi jism holatining asosiy parametrlari ( $P, V, T$ ) bilan bir qatorda  $Q, A, U, I, S$  holat funksiyalari qo'llaniladi.

$Q$  - qizdirish uchun kerak bo'lgan issiqlik miqdori, kJ

$$Q = m c_p (T - T_0) \quad (1.16)$$

$\Delta U$  - ichki energiyaning o'zgarishi, kJ

$$\Delta U = m c_v (T - T_0) A \quad (1.17)$$

$A$  - siqish yoki kengaytirishdagi bajarilgan ishi, kJ

$$A = m \frac{R}{n-1} (T_1 - T_2) \quad (1.18)$$

bu yerda  $R$  - gaz doimiysi, havo uchun  $0,287 \text{ kJ/(kg K)}$  ga teng.

$\Delta I$  - entalpiya o'zgarishi, J

$$\Delta I = mc_p(T - T_0) \quad (1.19)$$

$\Delta S$  - holat funksiyasi sifatida entropiyaning o'zgarishi, uning differensiali son jihatdan berilgan issiqlik miqdorining tizim haroratiga nisbatiga teng,  $\text{kJ / K}$ .

$$\Delta S = m \cdot c \cdot \ln(T/T_0) \quad (1.20)$$

Birinchi ikkita termodinamik funksiyani ifodalashda issiqlik sig‘imlarining qiymatlari, politropik ko‘rsatkich kabi, butun politropik jarayon davomida o‘zgarmagan holda, ishchi jism ichki energiyasini o‘zgartirishga sarflangan issiqlikning tarmoqlanish koeffitsiyentining doimiyligini ekanligini ko‘rsatadi, ishchi jism termodinamik jarayonlarni o‘rganishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

$$\psi = \frac{\Delta U}{Q} = \frac{n-1}{n-k} \quad (1.21)$$

Bunday holda, nazariy termodinamikaning asosiy qoidalari qo‘llaniladi, ularga quyidagilar kiradi:

-termodinamikaning birinchi qonuni, ishchi jismga berilgan issiqlik Q, uning  $\Delta U$  ichki energiyasini o‘zgartirishga va A tashqi kuchlarga qarshi bajarilgan ishiga, sarflanadi (hajmni o‘zgartirish ishi)

$$Q = \Delta U + A, \text{kJ} \quad (1.22)$$

va ishchi jismning holati tenglamasi, ideal gaz uchun quyidagi shaklga ega:

$$PV = \nu RT, \quad (1.23)$$

bu yerda P - mutloq(absolyut) bosim, Pa;

V - ishchi jism egallagan hajm, m<sup>3</sup>;

$\nu$  - ishchi jismning molyar massasi, mol;

R - gaz doimiysi, J/(kg K);

T - mutloq(absolyut) harorat, K.


### **Labaratoriya ishining bajarilish ketma-ketligi**

1. 1.9-rasmda keltirilgan laboratoriya qurilmasining sxemasi bilan tanishing. Laboratoriya ishlarini o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmada keltirilgan ishning nomi va maqsadi asoslangan holda, o‘rganilayotgan jarayon haqidagi asosiy ma’lumotlarni kiritish uchun hisobot shaklini 1.6-jadvalni tayyorlang.

2. Stendni 220 V tarmoqqa ulang.  
4. Qurilmadagi avtomatik quvvat manbai BA, “Tarmoq 220 V” (Сеть 220В) ni yoqing.

5. Avtomatlashirilgan stendni kompyuterning USB ulagichiga ulang.

6. Dasturni yoqing MeasLAB Programsi Dasturnidan **“Politropik jarayon”** (“Политропний процесс”) yozilgan so‘zni ustiga kursorni(strelkani) qo‘yib kompyuter sichqonichasidagi chap tomon tugmasini bosishingiz bilan dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranida rasm ko‘rinadi.



Kompyuter ekranidagi “старт” so‘zi ustiga kurSORini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomoni bosiladi, shu bilan ma’lumotlar olish bo‘yicha dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranidagi (sxema, grafik, tablitsa, so’zlarini ustiga kurSORini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomon tugmasi bosish bilan) tadqiqot natijalari bo‘yicha ma’lumotlar olishga erisxiladi.

7. PB1 jo‘mrakni oching. BK3 kaliti, ЭК elektr-magnit klapan jo‘mragini qisqa vaqt ichida yoqing.

8. ЭК elektr-magnit klapan jo‘mragini yopiq bo‘lishi kerak, BK3 o‘chirilgan.

9. Sinov va jarayon parametrlarini olishni boshlang.

10. BK1 kalitini bosib BK kompressorini ishga tushiring, bu holda politropik havoni siqish jarayoni (0-1) sodir bo‘ladi, bunda bosim  $P_3 - P_0$  teng bo‘lagan holda  $P_1$  bosimigacha oshadi, harorat esa  $T_0$  dan  $T_1$ gacha ko‘tariladi.

11. Bosim 180-200 kPa ga yetganda, BK 2 kaliti bilan kompressorni o‘chiring, PB1 jumrakni yoping va 1-2 izoxorik jarayonni kuzating, bunda germetik idishdagi havo  $T_1$  dan  $T_0$  gacha sovutiladi, bosim esa  $P_1$  dan  $P_2$  gacha kamayadi.

12. Keyinchalik, BK3 kaliti bilan EC elektr-magnit klapanini yoqing, idishdagi bosim keskin pasayadi, 2-3 jarayon. Natijada, tankdagi harorat  $T_0$  dan  $T_3$  gacha tushadi. Tizimdagi bosim  $P_3 = P_0$  ga teng bo‘lishi bilanoq, BK3 ni o‘chirib, EC elektr-magnit klapanini yoping.

13. BK2 kaliti yordamida isitgichni yoqing, havoning 3-4 izoxorik isishi jarayonini kuzating, bunda idishdagi harorat  $T_3$  dan  $T_0$  gacha, bosim esa  $P_3$  dan  $P_4$  gacha ko‘tariladi.

14. Keyin, PB2 asosiy chiqarish jo‘mragini sekin ohib, 4-0 jarayonni kuzating, bunda havoni drossellash bilan, bosim  $P_4$  dan  $P_3 = P_0$  gach kamayadi, entalpiya va harorat doimiy bo‘lib qoladi.

15. Qurilmani avtomatik BA “Tarmoq 220 V” orqali o‘chiring.

*Eslatma:*

*Keyingi tajribalarni o‘tkazishda isitish elementi TƏH va ΓC ning muhrlangan idishidagi havo xona haroratiga yaqin haroratgacha sovishi kerak. Buning uchun siz tizimni tozalashingiz kerak:*

- *PB1 ning ochiq qirralari,*

- *kompressorni BK1 kaliti bilan yoqing, bosim 200-220 kPa ga yetganda, muhrlangan idishda bu bosimni ushlab turish uchun PB2 jo‘mrak biroz oching*

16. 1.6-jadvalga barcha chegara parametrlarini kiriting va hisob-kitoblarni amalga oshiring.

17. Nazorat savollariga javob bering va bajarilgan ishlar yuzasidan mustaqil xulosalar chiqaring.

### **Olingan natijalarni qayta ishlash**

1. Hajmi V bo‘lgan idishdagi gazning tegishli bosimlarda massasini hisoblang ( $P_0 \dots P_4$ )

$$m_i = \frac{P_1 V_1 M}{R T_1}$$

bu yerda  $P_1, T_1$  - bosim va haroratning mutloq(absolyut) qiymatlari;

m - gazning massasi, M - gazning molyar massasi (havo uchun, M = 0,029 kg / mol);

R - 8,31 J / (mol \* K) - universal gaz doimiysi.

2. U holda molyar massa quyidagiga teng bo‘ladi

$$\vartheta = \frac{m}{M}$$

Har bir chegara nuqtasi uchun tadqiqot etiladigan jarayonlarini natijalari 1.5-jadvalda qayd eting.

3. Turli jarayonlar uchun politropik ko‘rsatgichini hisoblang

$$n_i = \frac{\ln \left( \frac{P_{i-1}}{P_i} \right)}{\left( \frac{V_i}{V_{i-1}} \right)}$$

#### 4. Siqish ishini hisoblang

$$A_i = \frac{vR}{n_{i-1}} (T_{i-1} - T_i)$$

O‘rganilayotgan jarayonda havoning solishtirma issiqlik sig‘imini aniqlang

$$c = c_v \frac{n-k}{n-1}$$

bu yerda  $c_v = 0,72 \text{ kJ/(kg K)}$  havoning solishtirma izoxorik issiqlik sig‘imi;  
k - havo adiabatik koeffitsiyenti 1,4 ga teng.

#### 5. Silindrning devorlari orqali chiqarilgan issiqlik miqdorini hisoblash

$$Q = m * c * (t_i - t_{i-1}) \quad (\text{j})$$

bu yerda c - joriy jarayon uchun issiqlik sig‘imi.

#### 6. Havoning ichki energiyasining o‘zgarishi

$$\Delta U = m * c_v * (t_i - t_{i-1})$$

O‘lchov va hisoblash natijalari 1.6-jadvalda keltirilgan

1.6-jadval

Holat parametri	Jarayon nuqtasi raqami					
	0	1	2	3	4	0
t, °C						
T, K						
P <sub>ortiq</sub> , kPa						
P, кПа						
m, kg						
jarayon						
n	0-1	1-2	2-3	3-4	4-0	0-1
Q, J						
ΔU, J						
A, J						

#### Hisobot shakli

- Ishning maqsadi va vazifalari.
- Qisqacha nazariy qoidalar.
- Laboratoriyanji jihozlash sxemasi va tavsifi.
- Tadqiqot hisoboti.
- Jarayon grafiklar.
- Olingan natijalarni tahlil qilish.

## Nazorat savollari

1. Politropik jarayonning issiqlik sig‘imini aniqlash uchun tenglamani yozing va undan barcha asosiy politropik jarayonlarning issiqlik sig‘imlarini qanday olish mumkin.
2. Ideal gazning ichki energiyasi qanday jarayonlarda ortadi va qaysi kamayadi?
3. Silindrning devorlari orqali chiqarilgan issiqlik miqdorini nimalarga bog‘liq bo‘ladi?
4. Gazni siqish ishini nimalarga bog‘liq bo‘ladi?

### 1.10. Tatqiqotda etish jarayonida olingan ma’lumotlarni taqqoslash

**Ishning maqsadi:** o‘zgarmas hajmdagi harorat va bosim o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash.

#### Ish vazifalari

1. Tadqiqot qilish bilan Charl qonunini tekshirish.
2. Olingan ma’lumotlarni tajriba bilan solishtiring.

#### Umumiylar ma’lumot

Ideal gazlar uchun izoxorik jarayon Charlz qonuni bilan ifodalanadi:

Ideal gazning bosimi uning termodinamika haroratiga proporsional ravishda o‘zgaradi (real gazlar Sharil qonuniga bo‘y so‘nmaydi)

$$\frac{P}{T} = \text{const}$$

Ushbu ishda tajribalar jarayonida harorat T va bosim P ni o‘zgarishini olingan ma’lumotlarni solishtirish usulidan foydalanamiz. Agar jarayon izoxorik bo‘lsa, u holda  $P / T$  nisbati o‘zgarmas bo‘lib qolishi kerak.

O‘lchov va hisoblash natijalari 1.7-jadvalda keltirilgan

1.7-jadval

№	1.5- laboratoriya ishi			1.8- laboratoriya ishi		
	T, K	P, Pa	P/T	T, K	P, Pa	P/T
1						
2						
3						
i-n						

## **Olingan natijalarni qayta ishlash**

1.5 va 1.8 laboratoriya ishida olingan eksperimental ma'lumotlar uchun mutloq(absolyut) bosim va haroratni hisoblang (faqat 1-2 izoxorik jarayon uchun):

- tekshirilayotgan hajmdagi mutloq(absolyut) bosim ( $P$ ) atmosfera bosimi ( $P_{atmosfra}$ ) va muhrlangan idish bo'shlig'idagi ortiqcha bosim ( $P_{ortiq}$ ) yig'indisiga teng.

$$P = P_{atmos} + P_{ortiq}$$

mutloq(absolyut) harorat,

$$T = t + 273,15$$

Har bir nuqta uchun P/T nisbatini hisoblang. 7.1- jadvalga ma'lumotlarni kiritin.

### **Hisobot shakli**

1. Ishning maqsadi va vazifalari.
2. Qisqacha nazariy qoidalar.
3. Olingan natijalarni tahlil qilish.

### **Nazorat savollari**

1. Ideal gazlar uchun qaysi qonun izoxorik jarayonni tavsiflaydi?
2. Tajribada qanday kattaliklar o'lchanadi?
3. Charlz tenglamasini keltiring.

## **II.LABORATORIYA SHAROITIDA VENTILASYON TIZIMLARINI O'RGANISH**

### **2.1.Texnika xavfsizlik qoidalari**

Laboratoriya ishlarini bajarishdan oldin talabalar quyidagi asosiy qoidalarni o'zichiga olgan ko'rsatmalarga muvofiq xavfsizlik bo'yicha tushuntrish ishlari o'tishlari kerak:

#### **Umumiy maqsad**

Qurilmadagi barcha ishlar faqat xavfsizlik qoidalariiga rioya qilish bo'yicha to'liq ko'rsatma olgan o'qituvchi yoki ma'sul shaxs ishtirokida amalga oshirilishi kerak.

Qurilma joylashgan joy begona narsalar bilan to'lib ketmasligi kerak. Qurilmani yoqishdan oldin jihoz va asboblarni ishga yaroqlilagini aniqlash uchun ularni yaxsxilab tekshirib ko'ring. Elektr shnurlari, vilkalar, rozetkalar va kalitlarda ko'rindigan shikastlar bo'lmasligi kerak. Nosozliklar mavjud bo'lganda laboratoriya qurilmasini yoqish taqiqlanadi.

Topshiriq davomida talaba ushbu laboratoriya ishni bajarish bilan bog'liq bo'lmanan begona narsalar bilan shug'ullanmasligi kerak.

Laboratoriya qurilmasini elektr tokida ishlaganligi sababli yolg'iz ishlash taqiqlanadi. Agar kerak bo'lsa, birinchi yordam ko'rsatish uchun ikkinchi odam borligiga ishonch hosil qilingda ishлага ruxsat etiladi.

Talabalarga laboratoriya qurilmalaridagi nosozliklarni mustaqil ravishda bartaraf etishga ruxsat berilmaydi.

#### **Elektr qismi uchun.**

Elektr dvigatellari, isitish elementlari va asboblarni quvvatlantirish uchun 220 V yuqori kuchlanish mavjudligi sababli quyidagilar taqiqlanadi:

a) elektr toki bilan o'zaro ulangan simlarni himoyalagan hollarda;

b) o'rnatish paneli va himoya qopqoqlari ochiq hollarda;

v) laboratoriya qurilmasi elektr toki bilan ishlaganliga tufayli o'qituvchining ruxsatisiz qurilmani o'chirish va yoqish ruxsat etxilmaydi;

g) elektr toki urishining oldini olish uchun, laboratoriyasi qurilmasini yerlash holati to'liq amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilmasdan turib qurilmadagi o'lchash asboblari, jihozlar va isitish quvurlari, elektr tokni ta'minlovchi simlariga tegmaslik kerak. Agarda qurilmadan bor kishini elektr toki urishi, kuyish yoki

boshqa holatlarda ro'y bersa, darhol shifokorni chaqirishingiz kerak va u kelguncha jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatishingiz kerak bo'ladi.

d) laboratoriysi qurilmasini dagi yerlash holatiga shikast yetkazilganda, darhol qurilmani o'chirilishi kerak.


laboratoriysi qurilmasidagi jihozlardan tutun chiqqanda, uskunada ruxsat etilgan haroratdan oshib ketishi yoki haddan tashqari qizib ketishi va boshqa favqulodda vaziyatlarda stendning vertikal panelining chetlarida joylashgan “To'xtatish” tugma yordamida qurilmani darhol o'chiriladi va o'qituvchiga xabar beriladi.

Ish tugagandan so'ng, ushbu qo'llanmada keltirilgan ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilgan holda o'chirilishi kerak.

Talabalar ketishdan oldin ish joylarini tartibga solishlari va o'qituvchiga ish tugashi haqida xabar berishlari kerak.

## 2.2. Laboratoriya stendi bo'yicha ma'lumotlar

1-rasmda “Ventilyatsiya tizimlari” laboratoriya stendining umumiy ko'rinishi ko'rsatilgan. Stendlar shunday ishlab chiqilganki, alohida elementlarni ishga tushirish orqali turli xil havo shamollatish tizimlari, havo kanallari va qurilmalarining ishlashini tekshirish mumkin.



2.1-rasmda.“Ventilyatsiya tizimlari” laboratoriya qurilmasining umumiy ko'rinishi

Har bir laboratoriya ishda, ishni bajarish uchun qanday ketma-ketlikda amalga oshirish kerakligini tavsiflovchi ish ketma-ketligi bo‘limi mavjud. Har bir laboratoriya uchun ushbu bo‘limni diqqat bilan o‘qing.

Laboratoriya stendining sxemasi 2.1-rasmida ko‘rsatilgan.

Qurilma o‘lchash va nazorat qilish moslamalari bilan jihozlangan, ular yordamida siz jihozning ish rejimlarini boshqarishingiz mumkin (2.2-rasmga qarang).

Qurilma avtamatik boshqariladigan o‘chirib yoqish moslamasi yordamida yoqiladi, QF1 HL1 indikator chirog‘i yoritilgan bo‘lsa stendda elektr quvvat mavjudligini bildiradi.

Kanal ventilyatori BK1 kaliti bilan yoqiladi. Regulator (PCI) yordamida siz kanalni kerakli quvvatini (maksimal 100%, minimal 15%) sozlashingiz mumkin, shuningdek qurilmaning o‘zida joylashgan aylanma boshqaruv kaliti yordamida va kompyuter yordamida ham. “Kanal” tugmasi yordamida almashtirish amalga oshiriladi.

BK2 kaliti yordamida elektr isitgichi yoqiladi.


**Diqqat!** Isitgichni faqat ventilyator yoqilganda yoqish mumkin (haddan tashqari issiqqlikdan himoya qilish).

Quvvat regulyatori (PH1) isitgichning isitish quvvatini boshqarish uchun mo‘ljallangan. Quvvatni oshirish uchun boshqaruv tugmachasini soat yo‘nalishi bo‘yicha aylantiring.

Barcha o‘lchangan parametrlar raqamli ko‘rsatkichi laboratoriya stendi bilan old panelda bilan qiymatlar ko‘rsatiladigan kompyuter ekranida ko‘rsatiladi. Kompyuter ekranidagi virtual tugmalar yordamida: T - harorat, p - bosim, v- tezlik, siz tegishli parametrлarni grafik ko‘rsatish rejimiga o‘tishingiz mumkin.

Kompyutyerda ishslash, tartibga solish va parametrlarni o‘lchash haqida ko‘proq ma’lumotni “Dasturiy ta‘minot bilan ishslash bo‘yicha qo’llanma” da olishingiz mumkin.

Barcha tajribalar barqaror holatda o‘tkazilishi kerak.



<i>belgilanishi</i>	<i>Nomlanishi</i>
$\Phi$	Havo filtri
$K$	Elektr isitgich
$B$	Ventilator
$C$	Stabilizatsiya bo'limi
$B$	Havo roslagichi
$K$	Silindrsimon kanal $\Phi 100$
$K$	To'rtburchak kanal $110 \times 55$
$K$	gofrirovka qilingan kanal $\Phi 100$
$H$	Anemometr
$N$	Elektr isitgich
$\Phi$	Diffuzor sozlanishi

2.2-rasm.PAXP-BC laboratoriya stendining sxemasi

FS - havo oqimi tezligi.

TS - harorat o'lchagichi.

PS - bosim o'lchagichi.

PDS - differentsiyal bosim o'lchagichi.

NS - quvvat o'lchagichi.

### 2.3.Bosim va oqim tezliklarini aniqlash usullari o'rGANISH

**Ishning maqsadi:** tizimning turli nuqtalarida bosim va oqim tezligini tadqiqot qilish bilan asboblarni o'rGANISH.


#### Ish vazifalari

1. Bosim va bosim farqini o'lchash asboblari haqida ma'lumotni o'rGANISH.
2. Pitot naychasining qurilmasi va maqsadi bilan tanishish.

## Umumiy ma'lumot

Umumiy holatda bosim deganda kuchning normal komponentining kuch ta'sir qiladigan maydonga nisbati chegarasi tushuniladi (2.3-rasm). Kuchlarning bir xil taqsimlanishi bilan bosim kuchining normal qiymatini, ushbu kuch ta'sir qiladigan maydonga bo'lingan qiymatiga teng.

Bosim texnologik jarayonlarning eng muhim parametrlaridan biridir. Texnologik jarayonning oqimi bosim qiymatiga bog'liq. Bosim birligining qiymati tanlangan birliklar tizimiga bog'liq (1-ilovaga qarang).



2.3- rasm. Bosim deganda kuchning normal komponentining kuch ta'sir qiladigan maydonga nisbati chegarasi.

Mutloq va ortiqcha bosimni farqlang. Absolyut bosim  $P_a$ , noldan o'lchanadigan bosim. Ortiqcha bosim  $P_i$  - absolyut o'rtasidagi farq bosim va barometrik bosim  $P_b$  (ya'ni, atmosferasining havo ustunining bosimi) [5]:

$$P_i = P_a - P_b \quad (2.1)$$

Agar mutloq bosim barometrik bosimdan kam bo'lsa, u holda

$$P_b = P_a - P_i, \quad (2.2)$$

bu yerda  $P_b$  - vakuum bosimi.

Bosim birliklari 1-ilovada keltirilgan.

O'lchangan bosim turiga ko'ra bosimni o'lhash asboblari quyidagilarga bo'linadi:

- manometrlar - absolyut va ortiqcha bosimni o'lhash uchun;
- "Vakuum o'lchagichlar - kamdan-kam uchraydigan (vakuum) o'lhash uchun;
- bosim va vakuum o'lchagichlar - ortiqcha bosim va vakuumni o'lhash uchun;
- past bosim o'lchagichlari- kichik ortiqcha bosimlarni o'lhash uchun (40 kPa gacha);
- Tyagomer( kichik bosim o'lchagichlari)- kichik razryadlarni o'lhash uchun (minus 40 kPa gacha);

- Tyagonaporomer- past bosim va kichik ortiqcha bosimlarni o‘lhash uchun;
  - differensial bosim o‘lchagichlari - bosim farqini o‘lhash uchun
  - barometrlar - atmosfera havosining barometrik bosimini o‘lhash uchun [5].
- Ishlash printsipiga ko‘ra bosim o‘lhash asboblari quyidagilarga bo‘linadi:
- o‘lchangan bosimni suyuqlik ustunining gidrostatik bosimi bilan muvozanatlash asosida suyuq bo‘lganlar uchun;
  - turli elastik elementlarning deformatsiya kattaligi yoki ular tomonidan ishlab chiqilgan kuch bilan bosimni o‘lchaydigan deformatsiya (elastik) bo‘yicha;
  - porshnli bosim o‘lchagichlarda;
  - bosimning qandaydir elektr miqdoriga aylanishiga yoki bosim ostida materialning elektr xususiyatlarining o‘zgarishiga asoslanganligi bo‘yicha [5].

So‘nggi yillarda elektr bosim o‘lchagichlari tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Ularni batafsил ko‘rib chiqaylik.

Qurilmalarning ishlash printsipi bosimni o‘lhash bilan bog‘liq bo‘lgan elektr miqdorlarini o‘lhashga asoslangan [35]. Elektr manometrlarining sezuvchi elementlari bevosita bosimning funksional jihatdan bosim bilan bog‘liq bo‘lgan ba‘zi elektr miqdoriga aylanishini hosil qiladi. Har xil turdagи bosim sig‘imiga ega bo‘lgan bosim datchiklari, piezoelektrik va boshqalar mavjud.

Sig‘imi bosim datchikli kondensatorlar, konvertor plitalar orasidagi masofani o‘zgartirishiga asoslangan bo‘lib, kondensator sig‘im o‘zgartirish usulidan foydalanadi. Ma‘lumki, ilk bor bosim sig‘imli datchikli o‘tkazgichlari, keramika yoki silikon sig‘imli va elastik metall membranadan foydalangan holda ishlab chiqarilgan. Bosim o‘zgarganda, elektrodli membrana deformatsiyalanadi va sig‘im o‘zgaradi.


Keramika yoki kremniydan tayyorlangan elementda plitalar orasidagi bo‘shliq odatda yog‘ yoki boshqa organik suyuqlik bilan to‘ldiriladi (2.4-rasm).



2.4-rasm. Sig‘imli keramik bosim o‘tkazgich

Ikki kvarts plitalari bilan piezoelektrik bosim datchik shaklda ko‘rsatilgan. 7 [23]. O‘lchangan bosim datchik korpusining pastki qismi bo‘lgan membrana 1 ga

ta'sir qiladi. Kvarts plitalari 2 ularning orasiga o'rnatilgan metall ajratgichlar 3. O'rta bo'shliq 3 izolyatsion materialning ekranlangan yengidan 5 o'tuvchi chiqish 4 ga ulanadi. Qopqoq 6 korpusga ulangan va bosimni shar 7 orqali plitalarga o'tkazadi, buning natijasida o'lchangan bosim kvarts plitalari yuzasiga teng taqsimlanadi.



2.5-rasm. Piezoelektrik bosim sensori

Kvarts plitalari odatda o'lchash pallasida salbiy potensialni qabul qilishga joylashtirilgan. Datchikga ijobiy potentsial qo'llaniladi. Zaryad oqishini kamaytirish uchun juda yuqori sifatli izolyatsiya talab qilinadi. Xuddi shu maqsadda kvarts plitalarining yuzasi ehtiyyotkorlik bilan sayqallanadi. Ikkita (va ba'zan ko'proq) plitalardan foydalanish chiqish EYUK ni oshiradi, chunki plitalarning chiqish signallari qo'shiladi [23].

Piezoelektrik sensor elektr kondensatorlarga o'xshaydi. Mexanik kuch ta'sirida paydo bo'lган  $q$  elektr miqdori pyezoelektrik elementning yuzlarini va unga ulangan o'tkazgichlarni  $U$  kuchlanishiga zaryad qiladi, bu quyidagicha aniqlanadi.


$$U = \frac{q}{C} \quad (2.3)$$

bu yerda  $C$  - o'tkazgichlar orasidagi sig'im (shu jumladan, pyezoelektr elementining sig'imi).

Pito-Prandtl naylari quvurlardagi gazlarning oqim tezligini o'lchash uchun ishlataladi [7]. Bosim nayi ikkita nayidan iborat - ichki va tashqi naylardan iborat (2.6-rasm).

Uchidan oqim tomon oxilgan ichki trubka statik va(dinamik) tezliklardagi bosimlarning yig'indisiga teng bo'lган umumi bosimni qabul qiladi. Bosim trubkasi har doim quvur liniyasining o'qi bo'ylab o'rnatiladi, uning ochiq uchi oqimga qaragan. Umumi va statik bosim o'rtasidagi farq bilan tezlikni (dinamik) bosimni aniqlash mumkin, odatda  $p_{ck}$  bilan belgilanadi.

Bosim farqini o'lhash uchun quvurlarning uchlari tezlik bosimi  $p_{c_k}$  qiymatini ko'rsatadigan differentsial bosim o'lchagichga ulanadi.



2.6-rasm - Pitot-Prandtl trubkasi (sxemasi)

Ikki bosim o'rtasidagi farqni ko'rsatadigan bosim o'lchagichlari differentsial bosim o'lchagichlari yoki qisqacha differentsial bosim o'lchagichlari deb ataladi. Tezlik bosimini (ba'zan juda kichik qiymatlarga ega) aniqroq o'qish uchun odatda u shaklidagi bosim o'lchagichning o'ng tizzasi eglmli trubka shaklida, chap tomoni esa idish shaklida bo'ladi. Ushbu tartibga solishda differentsial bosim o'chagichlari mikromanometrlar deb ataladi [19].

Mikromanometrlar odatda rangli spirt bilan to'ldiriladi va mm suv ustuniga o'lchanadi.

Formuladan

$$\Delta p = \frac{W^2 * \rho}{2} \quad (2.4)$$

tezlikni ushbu kesimda aniqlashingiz mumkin

$$w = \sqrt{\frac{2\Delta p}{\rho}} \quad (2.5)$$

bu yerda  $\Delta p$  - bosim farqi;

$\rho$  - mos keladigan haroratdagi havo zichligi.


Shuni ta'kidlash kerakki, 2.5 formula bo'yicha hisoblangan  $w$  tezligi faqat o'lhash nuqtasiga tegishli hisoblanadi.

### Laboratoriya ishni bajarish ketma-ketligi

1. 1.9-rasmida keltirilgan laboratoriya qurilmasining sxemasi bilan tanishing. Laboratoriya ishlarini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmada keltirilgan ishning nomi va maqsadi asoslangan holda, o'rganilayotgan jarayon haqidagi asosiy ma'lumotlarni kiritish uchun hisobot shaklini 1.6-jadvalni tayyorlang.

2. Stendni 220 V tarmoqqa ulang.
3. **QF1, "Tarmoq 220 V"** avtomatik quvvat manbayini yoqing.

5. Avtomatlashirilgan stendni kompyutering USB ulagichiga ulang.
6. Dasturni yoqing MeasLAB Programsi Dasturnidan, kompyuter ekranida rasm ko‘rinadi. Kompyuter ekranidagi “старт” so‘zi ustiga kursorini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomoni bosiladi, shu bilan ma’lumotlar olish bo‘yicha dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranidagi (sxema, grafik, tablitsa, so’zlarini ustiga kursorini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomon tugmasi bosish bilan) tadqiqot natijalari bo‘yicha ma’lumotlar olishga erisxiladi.



5. Stenddagi barcha quvur qopqoqlarini yoping. 3B1 quvur qopqoqlarini va ΔΦ1 diffuzorini, soat miliga teskari burab to‘liq oching.

6. BK1 kalit bilan ventilyatorni yoqing. Quvvatni boshqarish tugmachasini PC1 soat yo‘nalishi bo‘yicha to‘xtaguncha aylantiring. Ventilyator asta-sekin maksimal aylanish sonini oladi. Ushbu ish rejimi ventilyatorning maksimal havo oqimiga mos keladi.

7. Stenddagi faollashtirilganda old panelning raqamli ko‘rsatkichlarida “Boshlash” tugmasi bosilganda barcha o‘lchangan parametrlarning bir lahzali qiymatlarini aks ettiradi, siz parametrlarning grafik ko‘rinishiga ham o‘tishingiz mumkin.

8. ΔΦ1 diffuzer pardasini asta-sekin yopib, datchiklarning ko‘rsatkichlarini kuzatib boring. Natijalarni 2.1-jadvalga yozing.

9. Qurilmani avtomatik QF1, orqali o‘chiring (“Tarmoq 220 V”).

## Olingan natijalarni qayta ishlash

9- Nuqtadagi datchik aslida bosimning tegish nuqtasidagi bosim va atmosfera bosimi o‘rtasidagi bosim qiymatlari farqini ko‘rsatadi, ya’ni bosim o‘lchagichga o‘xshash ortiqcha bosim miqdorini ko‘rsatadi.

O‘lchovlar va hisob-kitoblar natijalari 2.1-jadvalda keltirilgan

2.1-jadval

Nº	9- nuqtadagi bosim ( $P_9$ )	Filtrdagi bosim farqi $\Delta p$ , Pa
1		
2		
3		

## Hisobot shakli

1. Ishning maqsadi va vazifalari.
2. Laboratoriyanı jihozlash sxemasi va tavsifi.
3. Tadqiqot o‘tkazish usuli.
4. O‘lchov natijalari jadvali.
5. Olingan natijalarni tahlil qilish.

## Nazorat savollari

1. Sezuvchan element turiga ko‘ra bosimni o‘lchash uchun asboblar tasnifi.
2. “Bosim” tushunchasiga ta’rif bering. Bosimning o‘lchov birliklari va ular orasidagi bog’liqlik.
3. Elektron bosim o‘lchagichlarning xususiyati nimada?
4. Kapasitiv bosim o‘lchagichning ishlash prinsipini tushuntiring?
5. Pyezoelektrikning datchikini sxemasini chizing va ishlash prinsipini tushuntiring?
6. Qaysi havo yuqori zichlikka ega - butunlay quruq havo yoki nam havo?

### **III. ISSIQLIK IZOLYATSION MATERIALLARNING ISSIQLIK O'TKAZUVCHANLIGINI O'RGANISH BO'YICHA LABARATORIYA MASHG'ULOTLARI**

#### **3.1.Texnika xavfsizlik qoidalari**

Laboratoriya ishlarini bajarishdan oldin talabalar quyidagi asosiy qoidalarni o'zichiga olgan ko'rsatmalarga muvofiq xavfsizlik bo'yicha tushuntrish ishlari o'tishlari kerak:

##### **Umumiy maqsad**

Qurilmadagi barcha ishlar faqat xavfsizlik qoidalariiga rioya qilish bo'yicha to'liq ko'rsatma olgan o'qituvchi yoki mas'ul shaxs ishtirokida amalga oshirilishi kerak.

Qurilma joylashgan joy begona narsalar bilan to'lib ketmasligi kerak.

Qurilmani yoqishdan oldin jihoz va asboblarni ishga yaroqlilagini aniqlash uchun ularni yaxsxilab tekshirib ko'ring. Elektr shnurlari, vilkalar, rozetkalar va kalitlarda ko'rinaligan shikastlar bo'lmasligi kerak. Nosozliklar mavjud bo'lganda laboratoriya qurilmasini yoqish taqiqlanadi.

Topshiriq davomida talaba ushbu laboratoriya ishni bajarish bilan bog'liq bo'lmanan begona narsalar bilan shug'ullanmasligi kerak.

Laboratoriya qurilmasini elektr tokida ishlaganligi sababli yolg'iz ishslash taqiqlanadi. Agar kerak bo'lsa, birinchi yordam ko'rsatish uchun ikkinchi odam borligiga ishonch hosil qilingda ishлага ruxsat etiladi.

Talabalarga laboratoriya qurilmalaridagi nosozliklarni mustaqil ravishda bartaraf etishga ruxsat berilmaydi.

##### **Elektr qismi uchun.**

Elektr dvigatellari, isitish elementlari va asboblarni quvvatlantirish uchun 220 V yuqori kuchlanish mavjudligi sababli quyidagilar taqiqlanadi:

- a) elektr toki bilan o'zaro ulangan simlarni himoyalagan hollarda;
- b) o'rnatish paneli va himoya qopqoqlari ochiq hollarda;
- v) laboratoriya qurilmasi elektr toki bilan Ishlaganliga tufayli o'qituvchining ruxsatisiz qurilmani o'chirish va yoqish ruxsat etxilmaydi;
- g) elektr toki urishining oldini olish uchun, laboratoriyasi qurilmasini yerlash holati to'liq amalga oshirilganligiga ishonch hosil kilmasdan turib qurilmadagi o'lchash asboblari, jihozlar va isitish quvurlari, elektr tokni ta'minlovchi simlariga tegmaslik kerak. Agarda qurilmadan bor kishini elektr toki urishi, kuyish yoki

boshqa holatlarda ro'y bersa, darhol shifokorni chaqirishingiz kerak va u kelguncha jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatishingiz kerak bo'ladi.

d) laboratoriysi qurilmasini dagi yerlash holatiga shikast yetkazilganda, darhol qurilmani o'chirilishi kerak.

laboratoriysi qurilmasidagi jixozlardan tutun chiqqanda, uskunada ruxsat etilgan haroratdan oshib ketishi yoki haddan tashqari qizib ketishi va boshqa favqulodda vaziyatlarda stendning vertikal panelining chetlarida joylashgan “To'xtatish” tugma yordamida qurilmani darhol o'chiriladi va o'qituvchiga xabar beriladi.

Ish tugagandan so'ng, ushbu qo'llanmada keltirilgan ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilgan holda o'chirilishi kerak.


Talabalar ketishdan oldin ish joylarini tartibga solishlari va o'qituvchiga ish tugashi haqida xabar berishlari kerak.

### 3.2. Laboratoriya stendi bo'yicha ma'lumotlar

Laboratoriya stendining umumiyo ko'rinishi va sxemasi (3.1 va 3.2-rasm) keltirilgan bo'lib quyidagilardan iborat: Silindr dan iborat **qobiq** (1) bog'lovchi mexanizmni(10) tayanch ustunlari (9). Issiqlik o'tkazmaydigan materialga (2) isitish moslamasi (3) avtomatik transformator ulagichi(11).



3.1-rasm. Laboratoriya qurilmasining umumiyo ko'rinishi



3.2-rasm - . Laboratoriya stendining sxemasi: 1 - **qobiq**, 2 - issiqlik o‘tkazmaydigan material, 3 - isitish moslamasi, 4 - issiqlik o‘tkazuvchanligi ma‘lum bo‘lgan materiali(po‘lat 3, qaliligi  $\delta = 20$  mm), 5 - termojuftli disk, 6 - sinov material, 7 - radiator, 8 - ventilyator , 9 - tayanch ustunlari, 10 - ) bog‘lovchi to‘sin, 11-elektron ko’rsatkich

Issiqlik o‘tkazuvchanligi ma‘lum bo‘lgan material (4) sinov namunasi siqib turudi, termojuftli disk (5) va sinovdan o‘tayotgan materialni (6) , (7) - radiator, (8) - ventilyator yuqoridan bosib turiladi. Termojuftlar  $T_1$  isitish moslamasiga pastdan,  $T_2$  -yuqoridan,  $T_3$  -radiator diskining ostidan o‘rnatilgan. Avtotransformator qurilmasida strelkali (elektron ko’rsatkich) ko‘rsatgich orqali kuchlanish roslanadi va dastur orqali programada qayd etiladi.

Isitgichning kuchlanishi Avtotransformator orqali 25 V gacha bo‘lgan cheklangan oraliqda roslanadi. Jarayonni roslash va isitgichga beriladigan kuchlanishni aniqlikda berilishini klemani “**chiqish**” joyiga multimetir ulanadi. Termojuft signallari real vaqtida TPM 200 o‘lchagichda ko‘rsatiladi.

O‘lchanadigan parametrlar:

$T_1$  - namunaning issiqlik sirtining harorati,  $^{\circ}\text{C}$ ;

$T_2(t_s)$  - 4-namunaning sovuq yuzasi va 5 issiqlik yuzasidagi harorat,  $^{\circ}\text{C}$ ;

$T_3(t_i)$  - 5-namunaning sovuq yuzasi harorati,  $^{\circ}\text{C}$ ;

N - isitgichning quvvati,  $\text{Vt}$ .

Boshqaruv bloki:

Tarmoq 220V - stendning quvvat manbayini yoqish;

BK1 - ventilyator yoqsh uchun ulagich, 7;

Isitgichning harorati 3 ( $T_1$ ) avtomatik boshqaruvchi tomonidan tartibga solinadi.

Elektr isitgichi quvvatni “**Ishga tushirish**” (“Старт”) yordamida yoqiladi.

Isitish moslamasining quvvatini % esa roslagich yordamida o'rnataladi.

Isitgich sirtining harorati  $T_1 = 70^{\circ}\text{C}$  ga yetganda, isitish avtomatik ravishda o'chadi, sirtining harorati  $65^{\circ}\text{C}$  ga tushguncha.

*Eslatma: Vertikal paneldag'i indikator chiroq yoqilganligini stend elektr tarmog'iga ulanganligini anglatadi.*

**Favqulodda vaziyat tugmachasini tekshiring “To‘xtatish” (“Стоп”) bosilgan holatda bo‘lishi kerak. Buning uchun uni soat yo‘nalishi bo‘yicha aylantiring (o‘qning yo‘nalishi tugmachada ko‘rsatilgan).**

### 3.3.Qattiq materiallarning issiqlik o‘tkazishini aniqlash

**Ishning maqsadi:** tadqiqot qilish yo‘li bilan materiallarning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffisiyentini aniqlash.

#### Ish vazifalari

1.issiqlik izolyatsiya materiallarining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentlarini o‘lhashning statsionar usuli bilan tanishish.

2. avtomatlashtirilgan o‘quv laboratoriya stendida issiqlik o‘tkazuvchanlik o‘lchovlarini o‘tkazish.

#### Asosiy ma'lumotlar

Nazariy jihatdan asoslaganda eng sodda bo‘lgan issiqlik o‘tkazuvchanligini o‘lhashning statsionar usullari boshqa usullarga qaraganda avvalroq rivojiana boshladi va hozirgi vaqtida zamonaviy nazorat va o‘lhash vositalaridan foydalanish tufayli ancha mukammallikka erishdi. Ularning yordami bilan turli xil materiallar o‘rganiladi: metallar, yarim o‘tkazgichlar, issiqlik izolyatorlari, tolalar, kukunlar, suyuqliklar va gazlar.

Qattiq issiqlik o‘tkazmaydigan materiallar, metall bo‘lmagan suyuqliklar va gazlarning issiqlik o‘tkazuvchanligini o‘rganish uchun, asosan, sinov namunasi plastinka, quvur yoki ichi bo‘sh shar shakliga ega bo‘lgan namuna orqali oqadi, va bir o‘lchovli issiqlik oqim uchun sharoitlar ta’minlangan usullardan foydalaniladi. Bir o‘lchovli issiqlik oqimi bilan tekislik-parallel plitani ko‘rib chiqaylik, plitalar oqim chiziqlari yuzasiga perpendikulyar. Bunday devor orqali issiqlik o‘tkazuvchanligi bilan issiqlik uzatish issiqlik oqim zinchligi Furye qonuniga muvofiq sodir bo‘ladi:

$$q = \lambda \frac{t_1 - t_2}{\delta}, \quad (\text{Vt/m}^2) \quad (3.1)$$

bu yerda  $\lambda$  - sinov materialining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti, ( $\text{Vt} / (\text{m K})$ );

$t_1, t_2$ - yon yuzalarning harorati, ( $^{\circ}\text{C}$ );

$\delta$ - sinov materialining qaliligi, m.

Formula (3.1) agar  $\lambda$  koeffitsiyenti haroratga bog'liq bo'limgan o'zgarmas deb qabul qilingan bo'lsa, bu kichik harorat o'zgarishi uchun to'g'ri keladi. Umumiy holda, materialning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentining haroratga bog'liqligini hisobga olish kerak.

Ma'lumki, ko'pgina issiqlik o'tkazmaydigan materiallarda kichik harorat oralig'idagi ( $50^{\circ}\text{S}$  gacha) materialarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti yetarli darajada aniqlikda bo'ladi.


Tajribada namunalardan foydalanganda namunaga kiradigan issiqlik oqimining bir qismi tashqi muhitga tarqaladi, bu tajribada hisobga olinishi kerak.

Agar namunalar past zichlikdagi havo g'ovakli materiallardan tayyorlangan bo'lsa yoki gazlar yoki suyuqliklar o'r ganilsa, u holda kontakt qarsxiliklarning ta'sirini etiborsiz qoldirish mumkin.

Hozirgi vaqtida materialarning issiqlik o'tkazuvchanligini o'lchash uchun statsionar tekis qatlam usulining ko'plab turli amaliy sxemalari ma'lum.

### Ishni bajarish tartibi

1. 3.1-rasm va 3.2-rasmlarda keltirilgan laboratoriya qurilmasining sxemasi bilan tanishing. Laboratoriya ishlarini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmada keltirilgan ishning nomi va maqsadi asoslangan holda, o'r ganilayotgan jarayon haqidagi asosiy ma'lumotlarni kiritish uchun hisobot shaklini 3.1-jadvalni tayyorlang.
2. Stendni 220 V tarmoqqa ulang.
3. **B "Tarmoq 220 V"** avtomatik quvvat manbayini yoqing.
5. Avtomatlashirilgan stendni kompyuterning USB ulagichiga ulang.



6. Dasturni yoqing **MeasLAB Programsi Dasturnidan**, kompyuter ekranida rasm ko‘rinadi. Kompyuter ekranidagi “**Ishga tushirish**”( “**старт**”) so‘zi ustiga kurstorini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomoni bosiladi, shu bilan ma’lumotlar olish bo‘yicha dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranidagi (sxema, grafik, tablitsa, so’zlarini ustiga kurstorini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomon tugmasi bosish bilan) tadqiqot natijalari bo‘yicha ma’lumotlar olishga erisxiladi.

5. “BK1” ulagich bilan LATRni yoqing, kuchlanishni 20 V gacha chiqaring.

6. 10-15 daqiqa davomida  $T_1-T_3$  harorat sensorlarining raqamli ko‘rsatkichlari va kompyuter o‘lchash tizimining old panelidagi ko‘p kanalli osiloskopning o‘qishlaridagi o‘zgarishlarni kuzating.

7. O‘zgarmas harorat o‘rnatilguncha (statsionar rejim) kuting va haroratlarni va hisoblangan quvvatni 3.1-jadvalga kuting.

8. Keyinchalik, avtotransformatorning kuchlanishini ketma-ket 30 V ga, keyin 40 V ga o‘tkazing va 5, 6-bosqichlarni takrorlang.

9. « **Olingan natijalarini qayta ishlash**» bo‘limiga muvofiq hisob-kitoblarni bajaring.

10. Uch rejimli  $\lambda$  ( $t$ ) grafigini tuzing, bunda  $t = \frac{t_i - t_s}{2}$

11. Jadvallarda keltirilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda sinov o‘tkazilayotgan materialning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsyentini aniqlang.

12. Nazorat savollariga javob bering va laboratoriya ishi yuzasidan mustaqil xulosalar chiqaring.

### **Olingan natijalarini qayta ishlash**

1.Namuna uchun koeffitsyent

$$K = \frac{\delta}{2*F}, \text{ m}^{-1}$$

bu yerda F - namuna sirtining yuzasi,

$$F = \frac{\pi * d^2}{4}, \text{ m}^2$$

$\delta$  - namunaning qalinligi, m.

d = 0,11 m - namunaning diametri.

1. Isitgichdan chikayotgan issiqlik oqimi

$$Q = \frac{U^2}{R}, \text{ Vt}$$

bu yerda U - isitgichga beriladigan kuchlanish voltmetr ko'rsatgichi bilan LATR o'rnatiladi, V;

R - isitgichning qarsxiligi, R - 24,8 om.

3. Har bir rejim uchun issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini hisoblang:

$$\lambda = K \frac{Q}{t_i - t_s}, \quad VT/(m^* K)$$

bu yerda  $t_i, t_s$  - mos ravishda issiq va sovuq tomonlardagi namuna yuzalarining o'rtacha harorati, °C;

Namuna termostatik qobiqda ekanligini hisobga olsak, vakuum bilan to'ldirilgan, keyin radial yo'qotishlarni etiborsiz qoldirish mumkin.

Jarayon parametrlari quyiddagi 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadval

Nº	F, m <sup>2</sup>	Q, VT	$t_i$ °C	$t_s$ °C	$\underline{t}$ , °C	$\lambda$ , VT/(m K)
1						
2						
3						

### Nazorat savollari

- Statsionar bo'limgan issiqlik o'tkazuvchanligi masalasini to'liq matematik shakllantirishga nimalar kiradi?
- Tayoq muntazam qizdirilganda harorat vaqt o'tishi bilan qaysi qonunga muvofiq o'zgaradi?
- Qaysi materiallar uchun barqaror holat tezroq sodir bo'ladi?
- Statsionar bo'limgan issiqlik o'tkazuvchanligini universal tavsiflash uchun qanday umumlashtirilgan koordinatalar qo'llaniladi?


### 3.4.Issiqlik o'tkazuvchanlik koefsientini tajriba yo'lida aniqlash

**Ishning maqsadi va ish vazifalari:** materialning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini, issiqlik oqim zinchligi, issiqlik oqimining yo'qotilishini, avtomatlashirilgan o'quv laboratoriya stendida eksperimental yo'l bilan aniqlash

### Ishni bajarish tartibi

- 3.1-rasm va 3.2-rasmlarda keltirilgan laboratoriya qurilmasining sxemasi bilan tanishing. Laboratoriya ishlarini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmada keltirilgan ishning nomi va maqsadi asoslangan holda, o'rganilayotgan jarayon haqidagi asosiy ma'lumotlarni kiritish uchun hisobot shaklini 3.1-jadvalni tayyorlang.

2. Stendni 220 V tarmoqqa ulang.
3. **B “Tarmoq 220 V”** avtomatik quvvat manbayini yoqing.
5. Avtomatlashirilgan stendni kompyutering USB ulagichiga ulang.
6. Dasturni yoqing **MeasLAB Programsi Dasturidan**, kompyuter ekranida rasm ko‘rinadi. Kompyuter ekranidagi **“Ishga tushirish”** ( “старт”) so‘zi ustiga kurSORini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomoni bosiladi, shu bilan ma’lumotlar olish bo‘yicha dastur ishga tushiriladi. Kompyuter ekranidagi (sxema, grafik, tablitsa, so’zlarini ustiga kurSORini (strelkani) qo‘yib sichqonchani chap tomon tugmasi bosish bilan) tadqiqot natijalari bo‘yicha ma’lumotlar olishga erisxiladi.



4.Qanol gaykalarini burang, ventilyatorni (8) radiator (7) bilan ehtiyojkorlik bilan chiqarib oling, issiqlik o‘tkazmaydigan material namunasini (6) o‘rnating, ventilyatorni radiator bilan o‘rnating va mahkamlang.

5. Ventilyatorni **BK1** ulagich bilan yoqing.
6. **“Ishga tushirish”** (“Старт”) ulagichi yordamida isitish quvvati roslagich bilan isitgichni yoqing. Quvvatni 15% ga o‘rnating.

#### **Diqqat: Temperatura 80 °C dan oshmasligi kerak.**

7.10-15 daqiqa davomida  $T_1-T_3$  harorat sensorlarining raqamli ko‘rsatkichlari va kompyuter o‘lchash tizimining old panelidagi ko‘rsatkichlari o‘zgarishini kuzating.

8. Statsionar rejimni o‘rnatishda harorat va isitish quvvati qiymatlarini o‘lchang. 3.2-jadvalga qiymatlarni kirititing.

9. Quvvatni 20% ga o‘zgartiring va 7, 8- da ko‘rsatilgan ishni bajarish ketma-ketligini takrorlang.

10. Keyin 25% ga o‘rnating. 7, 8- da ko‘rsatilgan ishni bajarish ketma-ketligini takrorlang. Stabil holatda olingan qiymatlarni 3.2-jadval jadvalga kirititing.

11.“Tarmoq” (“Сеть”) avtomatik ulagich bilan stendni o‘chiring.

12.« **Olingan natijalarini qayta ishslash**» bo‘limiga muvofiq hisob-kitoblarni bajaring.

13.Uch rejim uchun  $\lambda$  ( $t$ ) grafigini tuzing, bunda -  $t = \frac{t_i - t_s}{2}$

14.Nazorat savollariga javob bering va laboratoriya ishi yuzasidan mustaqil xulosalar chiqaring.

### **Olingan natijalarini qayta ishslash**

Isitgichdan o‘ziga xos issiqlik oqimi zinchligi  $Vt/m^2$  (parametrlarning belgilanishiga, “**Laboratoriya stendi bo‘yicha ma’lumotlar**” bo‘limiga qarang,)

$$q = \lambda_p \frac{t_1 - t_2}{\delta_p}$$

bu yerda  $\delta_p = 0,02$  m - po‘lat namunasining qalinligi;

$\lambda_p = 18$   $Vt / (m^* K)$  - po‘lat namunasining issiqlik o‘tkazuvchanligi.

Issiqlik izolyatsiyalovchi materialning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti,  $Vt/(m^* K)$ :

$$\lambda_{ii} = \frac{q * \delta_{ii}}{t_i - t_s}$$

bu yerda  $\delta_{ii} = 0,05$  m - issiqlik izolyatsiyalovchi materialning qalinligi.

Issiqlik oqimining yo‘qotilishi,  $Vt$ .

$$Q_n = Q_n - Q_m$$

$$Q_n = N$$

$Q_n$  - isitgich tomonidan uzatiladigan issiqlik,  $Vt$ .

Namunaga berilgan issiqlik oqimining,  $Vt$ .

$$Q_m = q * F$$

bu yerda  $F$  - namuna sirtining yuzasi,  $m^2$ .

$$F = \frac{\pi * d^2}{4}$$

$d = 0,1$  m - namunaning diametri.

O‘rtacha haroratni aniqlang

$$t = \frac{t_i + t_s}{2}$$

Eksperimental va hisoblangan ma'lumotlar 3.2-jadvalda keltirilgan.

3.2-jadval

Nº	N, Bt	t <sub>1</sub> , °C	t <sub>2</sub> , °C	t <sub>3</sub> , °C	q, Vt/m <sup>2</sup>	λ <sub>ii</sub> , Vt/(m K)	Q <sub>m</sub> , Vt	Q <sub>n</sub> , Vt	t̄, °C
1									
2									
3									

### Hisobot shakli

1. Ishning maqsadi va vazifalari.
2. Laboratoriyanı jihozlash sxemasi va tavsifi.
3. Tadqiqot o'tkazish usuli.
4. O'chov natijalari jadvali.
5. Olingan natijalarini tahlil qilish.

### Nazorat savollari

1. Isitgichdan o'ziga xos issiqlik oqimi zinchligi qanday parametirlarga bog'liq?
2. Issiqlik oqimining yo'qotilishi qanday aniqlanadi?
3. Issiqlik izolyatsiyalovchi materialning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti nimalarga bog'liq?

## **IV. TABIIY VA MAJBURIY KONVEKSION SHARTLARIDA SUYUQLIK OQIMIDA ISSIQLIK O'TKAZISHINI O'RGANISH**

### **4.1. Texnika xavfsizlik qoidalari**

Laboratoriya ishlarini bajarishdan oldin talabalar quyidagi asosiy qoidalarni o'zichiga olgan ko'rsatmalarga muvofiq xavfsizlik bo'yicha tushuntrish ishlari o'tishlari kerak:

#### **Umumiy maqsad**

Qurilmadagi barcha ishlar faqat xavfsizlik qoidalariiga rioya qilish bo'yicha to'liq ko'rsatma olgan o'qituvchi yoki mas'ul shaxs ishtirokida amalga oshirilishi kerak.

Qurilma joylashgan joy begona narsalar bilan to'lib ketmasligi kerak. Qurilmani yoqishdan oldin jihoz va asboblarni ishga yaroqlilagini aniqlash uchun ularni yaxsxilab tekshirib ko'ring. Elektr shnurlari, vilkalar, rozetkalar va kalitlarda ko'rindigan shikastlar bo'lmasligi kerak. Nosozliklar mavjud bo'lganda laboratoriya qurilmasini yoqish taqiqlanadi.

Topshiriq davomida talaba ushbu laboratoriya ishni bajarish bilan bog'liq bo'lmanan begona narsalar bilan shug'ullanmasligi kerak.

Laboratoriya qurilmasini elektr tokida ishlaganligi sababli yolg'iz ishlash taqiqlanadi. Agar kerak bo'lsa, birinchi yordam ko'rsatish uchun ikkinchi odam borligiga ishonch hosil qilingda ishлага ruxsat etiladi.

Talabalarga laboratoriya qurilmalaridagi nosozliklarni mustaqil ravishda bartaraf etishga ruxsat berilmaydi.

#### **Elektr qismi uchun.**

Elektr dvigatellari, isitish elementlari va asboblarni quvvatlantirish uchun 220 V yuqori kuchlanish mavjudligi sababli quyidagilar taqiqlanadi:

a) elektr toki bilan o'zaro ulangan simlarni himoyalagan hollarda;

b) o'rnatish paneli va himoya qopqoqlari ochiq hollarda;

v) laboratoriya qurilmasi elektr toki bilan ishlaganligi tufayli o'qituvchining ruxsatisiz qurilmani o'chirish va yoqish ruxsat etxilmaidi;

g) elektr toki urishining oldini olish uchun, laboratoriyasi qurilmasini yerlash holati to'liq amalga oshirilganligiga ishonch hosil kilmasdan turib qurilmadagi o'lchash asboblari, jihozlar va isitish quvurlari, elektr tokni ta'minlovchi simlariga tegmaslik kerak. Agarda qurilmadan bor kishini elektr toki urishi, kuyish yoki

boshqa holatlarda ro'y bersa, darhol shifokorni chaqirishingiz kerak va u kelguncha jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatishingiz kerak bo'ladi.

d) laboratoriysi qurilmasinidagi yerlash holatiga shikast etkazilganda, darhol qurilmani o'chirilishi kerak.


laboratoriysi qurilmasidagi jihozlardan tutun chiqqanda, uskunada ruxsat etilgan haroratdan oshib ketishi yoki haddan tashqari qizib ketishi va boshqa favqulodda vaziyatlarda stendning vertikal panelining chetlarida joylashgan “To'xtatish” tugma yordamida qurilmani darhol o'chiriladi va o'qituvchiga xabar beriladi.

Ish tugagandan so'ng, ushbu qo'llanmada keltirilgan ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilgan holda o'chirilishi kerak.

Talabalar ketishdan oldin ish joylarini tartibga solishlari va o'qituvchiga ish tugashi haqida xabar berishlari kerak.


#### 4.2. Laboratoriya stendi bo'yicha ma'lumotlar

Laboratoriya stendining umumiyo ko'rinishi 4.1-rasmda keltirilgan, elektr isitkich BH, aylanma nasos H, bitta gorizontal trubka ГT, bitta gorizontal qovurg'ali trubka OT va havosovutgichli OX apparati.



4.1-rasm. Laboratoriya qurilmasining umumiyo ko'rinishi

Issiqlik tashuvchisi sifatida suv (termofizik xususiyatlar, 2-ilova), antifriz (termofizik xususiyatlar, 3-ilova) yoki propilen glikolning glikol (termofizik xususiyatlar, 4-ilova) ishlatalishi mumkin.



4.2-rasm. Laboratoriya qurilmasining shartli sxematik

BH - elektr isitgich, ma'lum bir harorat bilan boshqariladigan dastur asosida 3,5 kVt quvvatgacha kuchlanish berish bilan boshqariladi;

3Y – Mayevskiy krani bilan to‘ldirish moslamasi(KM);

GT - silliq mis quvur,

- ichki diametri  $d_i = 18 \text{ mm}$ ;
- tashqi diametri  $d_t = 19 \text{ mm}$ ;
- quvur uzunligi  $L = 600 \text{ mm}$ .

OT – qovurg’ali mis quvur,

- mis quvurining ichki diametri  $d_{id} = 16 \text{ mm}$ ;
- mis quvurining tashqi diametri  $d_{td} = 19 \text{ mm}$ ;
- alyuminiy quvurning tashqi diametri  $d_{tAl} = 19 \text{ mm}$ ;
- qovurg’alar bo‘ylab tashqi diametri  $d_{tash} = 39 \text{ mm}$ ;
- quvur uzunligi  $L = 600 \text{ mm}$ ;
- qovurg’alar oralig‘i  $u = 3 \text{ mm}$ ;
- qovurg’arning qalinligi  $\delta_p = 0,4 \text{ mm}$ .

OX – havo yordamida sovutich radiatori;

CЧ- issiq suv oqimini o‘lchagichi;

AH - aneometr (ko‘chma havo oqimi sensori);

H - uchta kalit pozitsiyasiga ega aylanma nasosi (minimal, o‘rtacha va maksimal suv oqimi);

PB – roslovchi ventel;

3K - suv oqimini o‘chirish yoki yoqish uchun jo‘mrak;

CK - suyuqlikni almashtirish uchun drenaj jo‘mragi;  
T1 –  $t_k$  - dastlabki suv harorati;  
T2 –  $t_{ch}$  - silliq quvurning yuzasiga chiqishidagi suv harorati;  
T3 –  $t_{qqch}$  - qovurg‘ali quvur chiqishidagi suvning harorati;  
T4 –  $t_{qquh}$ , qovurg‘ali quvurning yuzasiga bevosita yaqin joylashgan havo harorati;  
T5 –  $t_{chh}$  - silliq quvurning chiqishidagi suvning harorati;  
T6-  $t_{sqh}$ - silliq quvurdagi yuzasiga bevosita yaqin joylashgan havo harorati;  
T7 –  $t_{qtyah}$  - qovurg‘ali quvurning yuzasiga yaqin atrofdagi havo harorati  
T8 -  $t_{hschh}$  - havosovutgichining chiqishidagi suv harorati;  
T9 -  $t_{sk}^{kh}$  - havosovutgichga kirish joyidagi havo harorati;  
T10 –  $t_{sd}$  - havosovutgich devorining harorati;  
T11 -  $t_{sk}^{kh}$  - havosovutgichining chiqishidagi havo harorati;  
V - suv sarfi, l/min;  
w<sub>ht</sub> - havo tezligi, m/s.

*Eslatma:* Vertikal paneldagi indikator chiroq yoqilganligi qurilma elektr tokiga ulanganligini bildiradi.

Suyuqlikdan havoga issiqlik o‘tkazuvchanligini oshirish qovurg‘ali quvurdagi qovurg‘alarni sonini oshirish yordamida amalga oshiriladi. Harorat PT100 harorat sensorlari va raqamlı hisoblagich - MB110-8A, raqamlı impuls hisoblagichi yordamida suyuqlik oqimi o‘lchanadi.

#### Boshqaruv bloki:

Tarmoq 220V - stendning quvvat manbayini yoqing;  
BK1 - nasos yoqiladi;  
BK2 - suv isitgichi yoqiladi;  
BK3 - sovutgich ventilyatorini yoqiladi.

OX havosovutgichining ventilyatori BK3 ulagich bilan yoqiladi va tezlikni regulyatorini soat yo‘nalishi bo‘yicha aylantirib ish holatiga aylantirish kerak. Regulyatordan foydalanib, ventilyatorini aylanish sonini o‘rnatishingiz mumkin (lavozim: maksimal 9, 1 - minimal aylanishlar).

**Favqulodda vaziyat tugmachasini tekshiring “To‘xtatish” bosilgan holatda bol‘ishi kerak. Buning uchun uni soat yo‘nalishi bo‘yicha aylantiring (o‘qning yo‘nalishi tugmachada ko‘rsatilgan).**

#### **4.3. Silliq quvurda oqa yotgan issiq suvdan tashqi atmosferaga ajralib chiqayotgan issiqlik oqimini o‘rganish**

**Ishning maqsadi va vazifalari:** quvurda oqayotgan issiq suvdan tashqi atmosferaga ajralib chiqayotgan issiqlik oqimini o‘rganish.

#### **Asosiy ma’lumotlar**

Issiqlik uzatishning asosiy harakteristikasi  $Q$ , J/s qiymati bo‘lib, u vaqt birligida o‘tkaziladigan issiqliknинг mumkin bo‘lgan miqdorini ko‘rsatadi va issiqlik tashuvcxilarning termofizik xususiyatlariiga (yopishqoqlik, issiqlik o‘tkazuvchanligi, zichlik, issiqlik sig‘imi), hamda ularning harakat rejimiga bog‘liqdir. Issiqlik o‘tkazuvchanligining kattaligiga muhim ta’sir issiqlik uzatish yuzasining tuzilishi xususiyatlari (o‘lchamlari, materiali, sirt holati) va sirt ustidagi isitish va isitiladigan muhit o‘rtasidagi o‘rtacha harorat farqi bilan amalga oshiriladi.

$$Q = M c_p ( t_k - t_{ch} ) \quad (4.1)$$

bu yerda  $M$  – suv massasining oqim tezligi, kg / s;

$c_p$  - o‘rtacha haroratdagi suvning issiqlik sig‘imi, kJ / (kg K);

$t_k$  va  $t_{ch}$  - boshlang‘ich va oxirgi suv harorati,  $^{\circ}\text{C}$ .

#### **Laboratoriya ishning bajarish ketma-ketligi**


1. 4.1-rasm va 4.2-rasmlarda keltirilgan laboratoriya qurilmasining sxemasi bilan tanishing. Laboratoriya ishlarini o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmada keltirilgan ishning nomi va maqsadi asoslangan holda, o‘rganilayotgan jarayon haqidagi asosiy ma’lumotlarni kiritish uchun hisobot shaklini 4.1-jadvalni tayyorlang.

2. Stendni 220 V tarmoqqa ulang.

3. **B “Tarmoq 220 V”** avtomatik quvvat manbayini yoqing.

5. Avtomatlashtirilgan stendni kompyuterning USB ulagichiga ulang.

